Sanoat korxonasining elektr ta'minoti sxemasi iste'molchilar uchun zarur bo'lgan ishonchlilikni ta'minlashi, ekspluatatsiyada sodda va qulay bo'lishi, korxonaning kelajak taraqqiyotini hisobga olishi, eng kam nobudgarchilikka ega bo'lishi, ta'mirlash ishlarini tezkor bajarishga imkoniyat yaratishni hisobga olishi va boshlang'ich kapital sarf-xarajatlarning kam bo'lishini ta'minlashi lozim. Shuning uchun elektr ta'minotini loyihalashtirish jarayonida sxemalarning bir necha variantlari ishlab chiqiladi va ulardan eng yaxshi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichliligi qabul qilinadi.


Elektr ta'minotiga qo'yiladigan talablar korxonaning texnologik jarayoni va quvvati bilan belgilanadi. Korxonadagi iste'molchilarning o'rnatilgan quvvatiga qarab, ular katta (75 MVt dan ortiq), o'rtacha (5–75 MVt) va kichik (5 MVt gacha) quvvatli obyektlarga bo'linadi. Yirik va o'rtacha quvvatli korxonalar 35;110; 220 va 330 kV li liniyalar orqali hudud podstansiyalaridan, kichik quvvatli korxonalar esa ko'p hollarda 6,10 kV kuchlanishli manbalardan energiya bilan ta'minlanadi.

Korxonada ta'minoti tizimini tashqi (energosiستمa podstansiyasidan korxonaning BPP yoki MTP gacha bo'lgan havo yoki kabel liniyalari) va ichki (BPP yoki MTP dan sex transformator podstansiyalarigacha bo'lgan tarqatish liniyalari) elektr ta'minoti tizimlariga bo'lish mumkin.

a) Tashqi elektr ta'minoti sxemalari

Kichik va o'rta quvvatli korxonalarining elektr ta'minotida bitta qabul punkti (BPP, MTP) bo'lgan sxemalar ishlatiladi.

4.1- rasmda keltirilgan sxemada korxonada energiyani energosiستمadan radial sxema bo'yicha qabul qiladi. Bu yerda tashqi va ichki elektr ta'minoti sxemalarida kuchlanishlar bir xil bo'lib, oraliq transformator ishlatilmaydi. Bunday sxema 6;10



4.1- rasm. Korxonalar elektr ta'minotining radial sxemasi.


va 20 kV kuchlanishda va korxonalar energosistemadan 5–10 km uzoqlikda bo'lganda qo'llaniladi. Ko'rsatilgan liniyalardan birida elektr ta'minoti uzilsa, seksiyalararo uzgich yordamida ta'minot avtomatik ravishda ikkinchi liniya orqali tiklanadi.

Energosistemadan uzoqda joylashgan katta quvvatli korxonalar uchun 4.2- rasmda ko'rsatilgan sxema tavsiya etiladi. Bunda tashqi va ichki sxemalar orasida transformatorlar joylashgan bo'lib, sistema kuchlanishi 6–20 kV ga pasaytiriladi.


Transformatorlarning quvvati va liniya simlarining ko'ndalang kesimlari shunday olinadiki, ular normal rejimda 60–70% yuklama bilan ishlaydi. Biror liniya va transformator uzilganda ikkinchi liniya va transformator joiz o'ta yuklanish bilan ishlab, korxonaning uzluksiz ish rejimini ta'minlaydi. BPP yuqori kuchlanishli tomonida uzgich o'rniga ajratkich va qisqa tutashtirgichlarning ishlatilishi elektr sxemaning ancha arzonlashishiga olib keladi. Biror transformator shikastlanganida relye himoyasi ta'siridan qisqa tutashtirgich ishga tushadi va sun'iy QT rejimini sodir etadi. Natijada liniyaning bosh qismida joylashgan uzgich orqali liniya uziladi va avtomatik qayta ulash (AQU) tizimi ishga tushadi. Liniyadagi «toksiz» pauza davomida ajratkich shikastlangan transformatorni uzadi. AQU tizimi «toksiz» pauza vaqti tamom bo'lganidan so'ng liniyani yana ulaydi va shikastlanmagan transformator manbaga birikadi.

O'rta va katta quvvatli korxonalar aksariyat elektr energiyasini ichkariga kirib boruvchi (глубокие вводи) yuqori kuchlanishli liniyalar orqali qabul qiladi.

Ichkariga kirib boruvchi elektr ta'minoti sxemasi deganda, minimal miqdorda apparatlar va transformatorlash pog'onasiga ega bo'lgan va yuqori kuchlanishni (35, 110, 220 kV) maksimal ravishda elektr qurilmalariga yaqinlashtiruvchi sxemalar tushuniladi.



4.2- rasm. Energosistemadan uzoqda joylashgan katta quvatli korxonalar elektr ta'minoti sxemasi.



4.3- rasm. Korxonahududiga energosistema kuchlanishida ikkita magistral liniya va to'rtta transformator podstansiyali elektr ta'minoti sxemasi.

Ichkariga kirib boruvchi havo yoki kabel liniyalari korxonahududi bo'ylab o'tkazilib, katta miqdorda energiya qabul qiluvchi punktlarga keladi. Ko'p hollarda bunday sxemalar ishlatilganda, BPP ga hojat qolmaydi, chunki yuqori kuchlanishli liniyalar to'g'ridan-to'g'ri sex transformator podstansiyalariga keladi va u yerda 0,66–0,4 kVli kuchlanishga aylantiriladi.

4.3- rasmda ko'rsatilgan sxemada korxonahududiga energosistema kuchlanishida ikkita magistral liniya kirib boradi va mavjud to'rtta transformator podstansiyalarini energiya bilan ta'minlaydi.


Ichkariga kirib boruvchi sxemalar soddaligi va arzonligi bilan birga ishonchligi bo'yicha markazlashtirilgan elektr ta'minoti sxemalaridan qolishmaydi. Ularni har qanday toifali iste'molchilarga ishlatish mumkin;

b) Ichki elektr ta'minoti sxemalari

Korxonada hududida elektr energiyasi radial, magistral yoki aralash sxemalarda taqsimlanadi. Sxemalarni tanlashda iste'molchilarning ishonchlik bo'yicha toifasi, ularning korxonada joylanishi, atrof-muhitning ekologik holati va boshqa omillar hisobga olinadi. Aytilgan uch turdagi sxemalar ko'p xil modifikatsiyalarga ega bo'lib, ularni har qanday toifadagi iste'molchilarni energiya bilan ta'minlashda ishlatish mumkin. Ichki ta'minot sxemalari keng tarmoqlanganligi sababli ko'plab elektr liniyalari va apparatlar ishlatiladi, bu esa elektr ta'minoti tizimiga katta texnik-iqtisodiy talablarni qo'yadi.

Radial sxemalarda elektr energiyasi BPP yoki MTP dan to'g'ridan-to'g'ri sex podstansiyalariga uzatiladi. Bunday sxemalar moslanuvchanlik xususiyatiga ega bo'lib, ekspluatatsiyada qulay hisoblanadi. 4.4- a rasmdagi sxema uchinchi toifali, 4.4- b rasmdagi sxemani esa ikkinchi toifali iste'molchilar uchun ishlatish mumkin.



Ikkinchi sxema uchun elektr ta'minotidagi tanaffus 1–2 soatdan ortmaydi. 4.4- d rasmda ko'rsatilgan sxema birinchi toifali iste'molchilarga mo'ljallangan bo'lib, elektr ta'minotidagi uzilish



4.4- rasm. Elektr ta'minotining radial sxemasi iste'molchilar uchun:
a—uchinchi toifali; b—ikkinchi toifali; d—birinchi toifali

rezervni avtomatik ulashga (RAU) ketadigan vaqt bilan belgilanadi. Tanishilgan sxemalar bir pog'onali hisoblanadi va o'rta, katta bo'lmagan quvvatli korxonalarda markazdan har tomonga tarqalgan g'ujlangan iste'molchilarni (nasos stansiyalari, pechlar, o'zgartirish qurilmalari, sex podstansiyalari) energiya bilan ta'minlashda ishlatiladi. Radial sxemalar manbadan sex podstansiyalarining yig'ma shinalarigacha bo'lgan oraliqdagi elektr ta'minoti sxemasini seksiyalash imkonini beradi.

Magistral sxemalarda bir nechta transformator podstansiyalari yakka yoki qo'sh magistralga shohobchalar orqali ulanadi. 4.5- *a* rasmda yakka linivali. 4.5- *b* rasmda esa ko'p liniyal



4.5- *rasm. Yakka (a) va ko'p (b) liniyal magistral sxema.*

magistral sxemalar keltirilgan. Magistral sxemalarning qo'llanilishi kommutatsiya apparatlarining sonini kamaytirib, tarmoqlarni qurishni arzonlashtirib, korxonada elektr ta'minoti tizimiga ketadigan sarf-xarajatlarni kamaytiradi.

Bir manbaga ulangan yakka magistralli sxemalarning ishonchlilik darajasi kichik bo'lganligi uchun uchinchi toifali iste'molchilarga tavsiya etiladi. Qo'sh magistralli sxemalarning ishonchlilik yuqori va ularni har qanday toifali iste'molchilarga ishlatish mumkin.

Uzatilayotgan quvvatning miqdoriga qarab, bir magistral 2–5 podstansiyani energiya bilan ta'minlaydi. Transformator podstansiyalarining seksiyalari normal holatda ayrim-ayrim ishlaydi.

Biror magistralda avariya sodir bo'lsa, transformator podstansiyalarining yuklamalari ikkinchi magistralga o'tkaziladi. Bu vazifa seksiyalararo uzgich yoki avtomat orqali bajariladi.

Magistral sxemalarning quyidagi guruhlari mavjud: bir tomonlama va ikki tomonlama ta'minlanuvchi yakka liniyalik sxemalar; halqasimon sxemalar; ikki va undan ko'p parallel magistralli sxemalar. Bir tomondan ta'minlanuvchi yakka liniya va halqasimon magistral sxemalarning ishonchlilik darajasi radial sxemalarga nisbatan past hisoblanadi.

Halqasimon va ikki tomonlama ta'minlanadigan 10 kV li magistral sxemalarda moyalash tizimlarining murakkabligi uchun ular normal rejimda yopiq holatda bo'lmaydi.

Korxonaning ichki ta'minoti tizimida faqat radial yoki faqat magistral tamoyilida qurilgan sxemalar ishlatilmaydi. Odatda, katta va mas'ul elektr iste'molchilarning ta'minoti radial sxemalarda, o'rta va mayda iste'molchilarniki esa magistral sxemalarda bajariladi. Bunday aralash sxemalarning ishlatilishi korxonada ichki ta'minoti tizimining iqtisodiy-texnik ko'rsatkichlarini yaxshilashga olib keladi.

4.2. PODSTANSIYALARDAGI TRANSFORMATORLAR SONINI VA QUVVATINI TANLASH

Korxonaning ratsional elektr ta'minoti tizimini yaratishda BPP va sex podstansiyalaridagi kuch transformatorlarining soni hamda quvvatlarini texnik va iqtisodiy nuqtai nazardan to'g'ri tanlash katta ahamiyatga ega. Texnik ko'rsatkichlarga elektr

ta'minoti sxemasining ishonchliligi, ekspluatatsiyada qulayligi, jihozlarning uzoq muddat ishlay olishi, avtomatlashganlik darajasi va hokazolar kiradi. Iqtisodiy ko'rsatkichlarni esa, asosan, boshlang'ich kapital mablag' va yillik sarf-xarajatlar tashkil qiladi. Korxonaga uchun kuch transformatorlarining soni va quvvatlarini tanlashda ikki yoki ko'p variantlar tahlil qilinib, ulardan eng ma'quli olinadi.

Variantlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda quyidagi formulalardan foydalaniladi:

$$T = \frac{K_B - K_A}{S_A - S_B} \quad (4.1)$$

yoki

$$Z = R_s K + S. \quad (4.2)$$

Bunda: K_A, K_B — A va B variantlar uchun ketadigan boshlang'ich kapital mablag'lar, [ming so'm]; S_A, S_B — ushbu variantlar uchun yillik ekspluatatsiya sarf-xarajatlari, [ming so'm/yil]; Z — yillik keltirilgan sarf-xarajatlar; T — chiqimlarni qoplash muddati, bu davrda kapital mablag'i katta bo'lgan variantda yillik ekspluatatsiya sarf-xarajatlarning kamligi hisobiga boshlang'ich mablag'ning qo'shimcha chiqimlari qoplanadi. T ga teskari bo'lgan miqdorni iqtisodiy samaradorlik *koeffitsiyenti deyiladi*:


$$P_s = \frac{1}{T}. \quad (4.3)$$

Energetikaning hisob-kitob ishlarida chiqimlarni qoplash me'yoriy (normativ) qiymati belgilangan. Shunga binoan

$P_s = \frac{1}{T_s}$ — me'yoriy iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti bo'lib, uning qiymatini 0,15 ga teng deb qabul qilingan. U holda chiqimlarni qoplashning me'yoriy muddati $T_s = \frac{1}{P_s} = 6,67$ — yilni tashkil etadi.

Korxonaga elektr ta'minoti tizimidagi transformatorlar tanlanganda ularning ikkita yoki uchta standart quvvatli bo'lishiga erishish maqsadga muvofiqdir. Bunda zaxiradagi transformatorlar soni kamayib, buzilganini almashtirish osonlashadi.

35 kV va undan katta kuchlanishli podstansiyalarning sxemalarida yuqori kuchlanishli tomonlarida uzgichlar ishlatilmasa, ta'minot tizimi katta miqdorda arzonlashadi. Barcha chekka podstansiyalar loyihalashtirilganda yuqori kuchlanishli qismga uzgichlar o'rniga qisqa tutashtirgichlar va ajratkichlar qabul qilish tavsiya etiladi. Sex podstansiyalarida transformatorlarni yuqori kuchlanishli liniyalariga ayirgichlar yoki ayirgich-saqlagichlar yoki yuklamani o'chirgich-saqlagichlar orqali ulash to'g'ri bo'ladi.



4.6- rasm. Bir va ikki transportli podstansiya sxemalari.

BPP va MTP lardagi transformatorlar soni elektr ta'minotiga bo'lgan ishonchlilik darajasi bilan aniqlanadi. Ko'rsatilgan tasvirda bir va ikki transformatorli podstansiyaning sxemalari keltirilib, ularda yuqori kuchlanishli ayirgich, uzgich va transformator hamda kichik kuchlanishli uzgich va ayirgichlar ketma-ket ulangan (4.6- rasm).

Keltirilgan sxemalardan ikkinchisi iste'molchilarni elektr energiyasi bilan ta'minlashda ishonchli hisoblanadi. Bir transformator ishdan chiqsa, ikkinchisi buzilgan transformatorni ta'mirlash yoki almashtirishga ketadigan vaqt oralig'i uchun 100% li ishonchlilikni ta'minlaydi.

Birinchi toifali iste'molchilarni ikkita transformatorli podstansiyalardan ta'minlash zarur bo'lib, har bir transformator ayrim shina seksiyalariga ulanishi kerak. Kichik kuchlanishli ishchi shinalar seksiyalari ham alohida saqlanadi. Bu esa kichik kuchlanishli tarmoqlarning ish sharoitlarini yaxshilab, q.t. tokining miqdorini ikki marta kamaytiradi.

Ikkinchi toifali iste'molchilarni ikki transformatorli yoki bir transformatorli podstansiyadan (zaxiradagi transformatorni biror soat davomida almashtirish imkoni bo'lganda) energiya bilan ta'minlash mumkin.

Uchinchi toifali iste'molchilar zaxirada transformator mavjud bo'lganda, bir transformatorli podstansiyaga ulanishlari mumkin.

Transformatorning quvvatini tanlash

Transformatorlar quvvatlari hisobiy yuklamalarga mos ravishda qabul qilinadi. Shu bilan birga transformatorning iqtisodiy ish rejimi va iste'molchilarning elektr ta'minoti bo'yicha ishonchlilikni ta'minlash ham hisobga olinadi. Me'yoriy sharoitda transformatorning yuklamasi uning tabiiy ishlash muddatini qisqartirishi kerak emas.

Transformatorning nominal quvvati deganda shunday yuklanish tushuniladiki, unda nominal ish sharoitida, belgilangan ishlash muddati davomida (taxminan 20 yil) transformator uzluksiz ishlay oladi. Transformatorning normal ish sharoitida quyidagi shartlar bajarilishi zarur:

1. Sovituvchi muhitning harorati – 20°C.
2. Transformator yog'ining o'rtacha harorati atrof-muhit haroratidan 44°C ga (M va D sovitish tizimlari uchun) yoki 36°C ga (DS, S sovitish tizimlari uchun) ortmasligi kerak.
3. Chulg'amning eng qizigan nuqtasidagi harorat uning o'rtacha haroratidan 13°C ga ortmasligi zarur.
4. Q. t. nobudgarchiligining salt ishlash nobudgarchiligiga nisbati taxminan beshga teng bo'lishi kerak.
5. Izolyatsiya harorati o'rtacha (85°C) haroratga nisbatan 6°C o'zgarsa, uning ishlash muddati ikki martaga o'zgaradi.
6. O'tish jarayonlarida transformator yog'ining yuza qismidagi harorat 95°C dan, chulg'am metallining eng qizigan qismining harorati esa 140°C dan ortmasligi kerak.

Atrof-muhit haroratining ortishi transformator izolyatsiyasi eskirishini tezlashtiradi. Atrof-muhitning yillik o'rtacha harorati $\theta_{o'rt} \neq 5^{\circ}C$ bo'lsa, transformatorning nominal quvvati uning pasportida ko'rsatilgan quvvatdan farqli bo'ladi, ya'ni:

$$S_{nq} = S_{pasp} \left(1 + \frac{5 - \theta_{o'rt}}{100} \right). \quad (4.4)$$

Bunda: S_{nq} – transformatorning nominal quvvati; S_{pasp} – atrof-muhitning harorati $\theta_m \neq 35^\circ C$ va o‘rtacha yillik harorat $\theta_{o'rt} \neq 5^\circ C$ bo‘lgan sharoit uchun transformatorning pasportida ko‘rsatilgan quvvat.

Atrof-muhit haroratining $35^\circ C$ dan har bir gradusga ortishi transformatorning nominal quvvati mos ravishda qo‘shimcha 1% ga kamayishiga olib keladi va bu jarayon $\theta_m \neq 45^\circ C$ gacha davom etadi. Atrof-muhit harorati $+ 45^\circ C$ dan ortsa, sovitish tizimi ishini jadallashtirish zarur bo‘ladi.

Transformatorlar quvvatlarini tanlashda ularning o‘ta yuklanish imkoniyatlarini hisobga olish kerak. Aks holda, o‘rnatilayotgan transformatorning quvvatini zaruriyatsiz katta qabul qilishga to‘g‘ri keladi. Eksploatatsiya jarayonida transformatorlarni sistematik yoki favqulodda holatlarda o‘ta yuklatish mumkin.

1. Transformatorni favqulodda (avariya) holatda 5 sutka davomida 40% gacha o‘ta yuklatishga ruxsat etiladi. Bunday yuklatishning vaqti har sutkada 6 soatdan ortmasligi kerak. Buning uchun avariya holatigacha transformatorning yuklamasi uning pasportida ko‘rsatilgan quvvatning 0,93 qismidan ortmagan bo‘lishi zarur. Qisqa muddatli o‘ta yuklatish miqdorining sovitish tizimi M, DS va S bo‘lgan transformatorlar uchun 4.7- rasmda ko‘rsatilgan grafik yordamida aniqlanadi.

Transformatorning muntazam ravishda o‘ta yuklanish imkoniyati yuklanish grafigining to‘ldirish koeffitsiyentiga bog‘liq:


$$K_m = \frac{S_{o'rt}}{S_m}. \quad (4.5)$$

Bunda: $S_{o'rt}$ – yuklamaning o‘rtacha qiymati;


S_m – yuklamaning maksimal qiymati.

4.8- rasmdan foydalanib, maksimal yuklamaning davomiyligi va K_1 ning miqdoriga qarab, transformatorning sutka davomida joiz muntazam o‘ta yuklanishning qiymatini aniqlash mumkin. Transformatorning qo‘shimcha yuklamasini quyidagi ifoda orqali ham aniqlash mumkin:

$$S_n = S_{np} (1 - K_m) 0,3. \quad (4.6)$$



4.7- rasm. Transformorni sovitish grafigi.



4.8- rasm. O'ta yuklanishni aniqlash grafigi.

Bunda: S_k — transformatorning maksimal yuklanish vaqti uchun joiz qo'shimcha yuklanish miqdori. Bundan tashqari transformatorni yoz faslida kam yuklama bilan ishlaganligini hisobga olib, qishda uni o'ta yuklatish mumkin. Yoz davridagi har 1% kam yuklanishga qishda shuncha o'ta yuklanish tavsiya etiladi. Lekin uning miqdori 15% dan ortmasligi kerak.

Umuman olganda, o'ta yuklanishda quyidagi shart bajarilishi talab etiladi:

$$S_t \leq 1,3 S_{ntp} .$$

Bunda: S_t — transformatorning yuklamasi. Eksploatatsiya jarayonida transformatorning iqtisodiy ratsional ish rejimini ta'minlash talab etiladi. Bu degani, transformatorlarda va butun elektr ta'minoti tizimida aktiv quvvat nobudgarchiligining miqdori eng kam bo'lishi kerak. Bunday nobudgarchilikni *keltirilgan nobudgarchilik* deb ataladi va u quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$\Delta P'_m = \Delta P_{si} + K_{yu}^2 \Delta P'_{qt} . \quad (4.7)$$

Bunda: $\Delta P'_{si} = \Delta P_{si} + K_o \Delta Q_{si}$ — transformatorning salt ish rejimi uchun keltirilgan quvvat nobudgarchiligi;

$\Delta P'_{qt} = \Delta P_{qt} + K_o \Delta Q_{qt}$ — transformatorning q.t. rejimi uchun keltirilgan quvvat nobudgarchiligi;

K_o — nobudgarchilikning o'zgarish koeffitsiyenti;

ΔP_{si} — transformatorning yuksiz holatidagi aktiv quvvat isrofi (ma'lumotnomalarda beriladi);

ΔP_{qt} — qisqa tutashuv rejimidagi aktiv quvvat nobudgarchiligi (ma'lumotnomalardan olinadi);

$$K_{yu} = \frac{S_{yu}}{S_{pasp}} — \text{yuklanish koeffitsiyenti};$$

S_{yu} — transformatorning yuklamasi;

S_{pasp} — transformatorning pasportida ko'rsatilgan quvvat;

$\Delta Q_{si} = S_{pasp} \frac{I_{si} \%}{100}$ — transformatorning salt ish rejimidagi reaktiv quvvat;

$\Delta Q_{qt} = S_{pasp} \frac{U_k \%}{100}$ — transformatorning qisqa tutashuv rejimidagi reaktiv quvvat;

$I_{si} \%$ — salt ish rejimidagi tok (ma'lumotnomalarda beriladi);

$U_k \%$ — transformator q.t. rejimida kuchlanishi (ma'lumotnomalarda beriladi).

(4.7) munosabatni quyidagicha yozish mumkin:

$$\Delta P'_m = \Delta P'_{si} + \frac{\Delta P'_{qt}}{S_{pasp}^2} S_{yu}^2. \quad (4.8)$$

Ifodani soddalashtirish maqsadida quyidagi belgilashlarni

$$\text{kiritamiz: } \Delta P'_{si} = a; \quad \frac{\Delta P'_{qt}}{S_{pasp}^2} = b.$$

U holda:

$$\Delta P'_m = a + bS_{yu}^2. \quad (4.9)$$

(4.9) asosida elektr ta'minoti tizimidagi keltirilgan nobudgarchilik miqdori va elektr yuklama orasidagi bog'lanishni chizishimiz mumkin. 4.9- a rasmda 1 va 2 transformatorlarning alohida va parallel ishlagan holatlardagi aktiv nobudgarchiligining o'zgarish grafiklari keltirilgan. Keltirilgan grafiklarning tahlili shuni ko'rsatadiki, yuklama $0 \div S_1$ oralig'ida bo'lganda, birinchi transformator yuklanishi kerak, chunki bu holda birinchi transformatorning keltirilgan aktiv quvvat nobudgarchiligi minimum bo'ladi. Agar $S_1 \leq S_{yu} \leq S_2$ shart bajarilsa, ikkinchi transformatorni

yuklatish maqsadga muvofiq. Agar $S_{yu} > S_z$ bo'lsa, ikkala transformatorlarni parallel ulab yuklatilganda nobudgarchiliklarning miqdori kichik bo'ladi.

A nuqtada $\Delta P'_{r1} = \Delta P'_{r2}$ bo'lganligi uchun


$$\text{va } S_{yua} = \sqrt{\frac{a_2 - a_1}{b_1 - b_2}} \text{ yoki } S_{yua} = \sqrt{\frac{a_1 - a_2}{b_2 - b_1}}. \quad (4.10)$$

Podstansiyada bir xil ikkita transformator mavjud bo'lsa,

$$a_1 = \Delta P'_{si}; \quad b_1 = \frac{P'_{qt}}{S_{pasp}^2},$$

$$a_2 = \Delta P'_{si}; \quad b_2 = \frac{2\Delta P'_{qt}}{(2S_{pasp}^2)^2} = \frac{\Delta P'_{qt}}{2S_{pasp}^2},$$

$$S_{yua} = \sqrt{\frac{a_2 - a_1}{b_1 - b_2}} = S_{pasp} \sqrt{2 \frac{\Delta P'_{si}}{\Delta P'_{qt}}}. \quad (4.11)$$



4.9- rasm. Bir va ikki transformatorni alohida va parallel ishlagan holatlardagi faol nobudgarchilikni o'zgarish grafigi.

Misol. Podstansiyada o'rnatilgan ikkita $S_{ntn} = 10 \text{ mVA}$ quvvatli transformatorlarning iqtisodiy maqsadga muvofiq rejimlarini aniqlash. Transformatorning texnik ko'rsatkichlari quyidagicha: $\Delta P_{cu} = 15 \text{ kVt}$, $\Delta P_{qt} = 58 \text{ kVt}$, $U_k = 10,5\%$, $I_{su} = 0,75\%$;

Yechish. Bitta transformatordagi nobudgarchiliklar yuqorida keltirilgan formulalar orqali quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta Q_{si} = 10 \cdot \frac{0,75}{100} \text{ kVA};$$

$$\Delta Q_{qt} = 10 \cdot \frac{10,5}{100} = 1050 \text{ kVA};$$

$$\Delta P'_{si} = 15 + 0,05 \cdot 75 = 19 \text{ kVA};$$

$$\Delta P'_{qt} = 58 + 0,05 \cdot 1050 = 110 \text{ kVA}.$$

Bunda nobudgarchilikning o'zgarish koeffitsiyenti miqdori $K_o=0,05$ kVt/kVA deb qabul qilinadi.

$$\Delta P'_i = \Delta P'_{si} + K_{yu}^2 \Delta P'_{qm} = 19 + K_{yu}^2 \cdot 110 \text{ kVm}$$

(4.11) munosabatdan:

$$S_a = 10 \cdot \sqrt{2 \frac{19}{110}} \approx 5,8 \text{ mVa}.$$

Demak, podstansiyaning yuklamasi 5,8 mVA dan kam bo'lsa, (4.9-b rasm) faqat bitta transformator yuklanishi kerak. Agar yuklama bu miqdordan katta bo'lsa, ikkala transformatorni parallel ulab ishlatish zarur.

Transformatorlarning soni va quvvatlarini aniqlash bo'yicha umumiy ko'rsatmalar

Sanoat korxonalari iste'molchilarining elektr ta'minotida zarur bo'lgan qudratli transformatorlarning soni, quvvati va tiplarini tanlashda quyidagi tartib tavsiya etiladi:

1. Podstansiyada o'rnatiladigan transformatorlarning soni iste'molchilarning elektr ta'minotining ishonchligiga bo'lgan talabidan kelib chiqadi. Masalan, birinchi toifali iste'molchilar uchun podstansiyaga ikkita transformator o'rnatilishi maqsadga muvofiqdir.

2. Podstansiyadagi transformatorlar quvvatini hisobiy to'la quvvat asosida tanlanadi:

$$S_{x\Sigma} = \sqrt{P_{x\Sigma}^2 + Q_{x\Sigma}^2}. \quad (4.12)$$

Bunda: $P_{x\Sigma}$, $Q_{x\Sigma}$ — korxonaning hisobiy aktiv va reaktiv quvvatlari. $Q_{x\Sigma}$ aniqlanganda korxonada o'rnatilgan reaktiv quvvatni kompensatsiyalovchi qurilmalarning quvvatini hisobga olish kerak. Agar sanoat korxonasining BPP ikkita transformator

oʻrnatilishi zarur boʻlsa, ularning har birining nominal quvvati quyidagicha aniqlanadi:

$$S_{nm} \geq \frac{S_{x\Sigma}}{2 \cdot 0,7}. \quad (4.13)$$

Avariya holatlari uchun transformatorning oʻta yuklanish imkoniyati tekshirib koʻriladi:

$$1,4 \cdot S_{nm} \geq S_{x\Sigma}. \quad (4.14)$$

Bunda hisobiy quvvat $S_{x\Sigma}$ aniqlanganda, III toifali isteʼmolchilar eʼtiborga olinmaydi.

Sex podstansiyalarida transformatorlarni qabul qilishda yuklama zichligi ham hisobga olinadi:

$$\sigma_{yu} = \frac{S_x}{F}. \quad (4.15)$$

Bunda: S_x – sex, korpus yoki boʻlimning hisobiy yuklamasi;
 F – sex, korpus yoki boʻlim maydonining yuzasi.

Agar $\sigma_{yu} \leq 0,2 \text{ kVA} / \text{m}^2$ boʻlsa, transformatorning quvvati 1000 kVA yoki undan kichik boʻlgani maʼqul $\sigma \leq (0,2 \div 0,3) \text{ kVA} / \text{m}^2$ oraligʻida –1600 kVA va $\sigma_{yu} > 0,3 \text{ kVA} / \text{m}^2$ da 1600 yoki 2500 kVA li transformatorning qabul qilinishi maqsadga muvofiq boʻladi.

Transformatorlarning ratsional yuklanish koeffitsiyentini quyidagicha olish tavsiya etiladi:

Ikki transformatorli podstansiyalarning yuklamalarida I toifali isteʼmolchilar koʻpchilikni tashkil etganda, $K_{yu} = 0,65 \div 0,7$;

bir transformatorli podstansiyalarda, kichik kuchlanishda boshqa podstansiyadan rezerv liniya mavjudligida, $K_{yu} = 0,7 \div 0,8$;

II toifali isteʼmolchilar koʻpchilikni tashkil qilib, markazlash-tirilgan zaxirada transformator mavjud boʻlganida yoki podstansiya yuklamalari III toifali isteʼmolchilardan iboratligida, $K_{yu} = 0,9 \div 0,95$.

3. Podstansiyadagi transformatorlar quvvatlarining mumkin boʻlgan variantlari, favqulodda holatdagi va muntazam oʻta yuklanishlarni hisobga olgan holda koʻrib chiqiladi. Belgilangan variantlardan texnik-iqtisodiy koʻrsatkichlari eng optimal boʻlgani qabul qilinadi.

4. Podstansiyaning kelajakda yuklamasining ortishini hisobga olib, uning binosi fundamentini yuqori quvvatli transformatorga mo'ljallab bajariladi yoki podstansiyaning qo'shimcha transformator o'rnatish evaziga kengayishi nazarda tutiladi.

Misol. Korxonada bosh pasaytiruvchi podstansiyaqidagi transformatorning soni va quvvatini, maksimal yuklama $S_{\max} = 22000 \text{ kVA}$ va maksimum vaqti 2,5 soat bo'lganda aniqlang. O'rtacha kunlik yuklama $S_y = 19000 \text{ kVA}$. I va II kategoriya iste'molchilari 73% ni tashkil qiladi.

Yechish. 1. Korxonada I kategoriya iste'molchilari bo'lgani sababli BPP da 2 ta transformator o'rnatiladi.

2. Yuklama grafigini to'ldirish koeffitsiyenti aniqlaniladi:

$$k = S_y / S_{\max} = 19000 / 22000 = 0,86.$$

3. k_k ning qiymati va soat maksimum vaqti bo'yicha ruxsat etilgan yuklamaning karralik koeffitsiyenti:

$$k_k = I_{\max} / I_{\text{nom}} = S_{\max} / S_{\text{nom}}.$$

Bu kattalikni egri chiziqlardan, $t = 2,5 \text{ s}$ va $k = 0,86$ uchun ruxsat etilgan yuklama karraligi koeffitsiyenti $k_k = 1,08$ ekanligi aniqlaniladi.

4) Transformatorlarning nominal quvvati aniqlaniladi:

$$S_{\text{nom}} = S_{\max} / k_k = 22000 / 1,08 = 20370 \text{ kVA}.$$

BPP da quvvati 16 000 kVA bo'lgan ikkita transformator qabul qilamiz.

Bunda nominal rejimda yuklanish koeffitsiyenti

$$k_{yu} = \frac{S_{\max}}{2S_{\text{nom}}} = \frac{22000}{2 \cdot 16000} = 0,68, \text{ bu iqtisodiy rejimga to'g'ri keladi.}$$

Transformatorlarning tanlangan quvvatini, transformatorlarni 40% ga o'ta yuklash qobiliyatini hisobga olgan holda, avariya rejimi tekshiriladi:

$$1,4S_{\text{nom}} = 1,4 \cdot 16000 = 22400.$$

Demak, transformatorning tanlangan quvvati (2x16000kVA) korxonani normal va avariya holatlarida elektr bilan ta'minlaydi.

4.3. PASAYTIRUVCHI PODSTANSIYASINING O‘RNATISH JOYINI ANIQLASH

Sanoat korxonalarining bosh pasaytiruvchi podstansiyalarida elektr energetikasi tizimidan uzatilgan yuqori kuchlanishli (35,110,220 kV) elektr energiyasini 6 yoki 10 kV li kuchlanishga pasaytiriladi.

BPP ning o‘rnatilishi joyini to‘g‘ri tanlash sanoat korxonasi-ning elektr ta‘minoti tizimini optimal loyihalashdagi asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Korxonaning elektr ta‘minotini loyihalashtirishda uning bosh plani berilib, unda barcha sexlar va boshqa obyektlar ko‘rsatiladi. Sexlarning joylanishi korxonaning texnologik jarayonidan kelib chiqadi. Planda sex va boshqa obyektlardagi qurilmalarning o‘rnatilgan quvvatlari ko‘rsatiladi.

Bulardan tashqari ayrim sex va korxonaning aktiv va reaktiv quvvatlarining yozgi va qishki fasllariga tegishli bo‘lgan xarakterli kunlik grafiklari beriladi.

Korxonaning BPP, MTP larning joylanish o‘rinlarini to‘g‘ri tanlash elektr ta‘minoti tizimiga ketadigan sarf-xarajatlarni kamaytiradi.

BPP joylanish o‘rnini tanlash uchun korxonada bosh planiga yuklamalar kartogrammasi chiziladi. Kartogramma deganda har bir sex, obyektlar maydonlarida chizilgan doiralarda tushuniladi. Ularning markazlari qilib obyektlar, sexlar planlarining markazlari olinadi. Chizilgan doiralarning yuzalari olingan masshtabda sex yuklamalariga teng bo‘ladi. Sex yoki korxonada yuklamalarining markazlari elektr energiya qabul qiluvchilarning simvolik markazi hisoblanadi.

BPP va sex podstansiyalarini imkoniyat boricha ushbu markazga joylashtirish kerak. Bu esa yuqori kuchlanishli elektr energiyasini iste‘molchilarga yaqinlashtiradi, yuqori va past kuchlanishli tarqatuvchi elektr tarmoqlarining uzunligini qisqartiradi, sarflanadigan o‘tkazgichlar uzunliklarini kamaytiradi va elektr energiyasining nobudgarchiligi ozayishiga olib keladi. Bulardan tashqari yuklamalar kartogrammasi asosida elektr yuklamalarni korxonada hududida qanday taqsimlanganligini tasavvur qilish imkoniyati yaratiladi.

Kartogrammani aktiv va reaktiv yuklamalar uchun alohida-alohida qurish maqsadga muvofiqdir. Chunki aktiv va reaktiv quvvat iste'molchilarning korxonada maydoni bo'yicha joylashishlari har xil bo'lib, ular ayrim-ayrim manbalarga ulanishi mumkin.

Kartogramma doiralarning radiuslari quyidagi formulalardan aniqlanadi:

$$r_{ia} = \sqrt{P_{xi} / \pi m}; \quad r_{ip} = \sqrt{Q_{xi} / \pi m}. \quad (4.16)$$

Bunda: P_{xi} — i - sexning hisobiy aktiv quvvati;

Q_{xi} — i - sexning hisobiy reaktiv quvvati;

m — doira yuzini aniqlash uchun masshtab.

Aktiv yuklamalarning ta'minoti elektr sistemasidan bajarilsa, reaktiv quvvat manbai sifatida maxsus kondensator batareyalarini, sinxron kompensatorlarni, reaktiv quvvatning ventilli statik manbalari ishlatilishi mumkin. Reaktiv quvvat manbalarini o'rnatish joyi reaktiv quvvat kartogrammasi asosida yuklamalarning simvolik markazini aniqlash natijasida topiladi. Reaktiv quvvat kompensatorlari o'rinlarini noto'g'ri tanlash reaktiv quvvat oqimlarini elektr ta'minoti tizimi elementlaridan keraksiz harakatlarga olib keladi va elektroenergiyaning qo'shimcha nobudgar-chiliklariga sabab bo'ladi.

Kartogrammaning har bir doirasini sektorlarga ajratish mumkin. Bu sektorlarning yuzalari mos ravishda yuqori kuchlanishli, past kuchlanishli va yorug'lik yuklamalariga proporsional bo'ladi. Agar biror sexda yuqori kuchlanishli, past kuchlanishli iste'molchilar va yoritish qurilmalari mavjud bo'lsa, hisobiy quvvat uch tashkil etuvchidan iborat bo'ladi, ya'ni

$$P_h = P_{yu.k} + P_{pk} + P_{yo}. \quad (4.17)$$

Bunda:


P_h — sexning umumiy hisobiy aktiv yuklamasi;

$P_{yu.k}$ — sexdagi yuqori kuchlanishli iste'molchilarning hisobiy quvvati;

P_{pk} — past kuchlanishli iste'molchilarning hisobiy quvvati;

P_{yo} — yoritish qurilmalarining hisobiy yuklamasi.

4.10- rasmda sex yuklamasining doirasi va yuqori kuchlanishli iste'molchilar, yoritish qurilmalari hosil qilgan yuklamalarning sektorlari ko'rsatilgan. Sektorlarning markaziy burchaklari quyidagicha aniqlanadi.




4.10- rasm. Sex yuklamasining doirasi va yuqori kuchlanishli iste'molchilar yoritish qurilmalari hosil qilgan yuklamalar sektorlari.

$$\alpha_1 = \frac{P_{yuk} \cdot 360^0}{P_x};$$

$$\alpha_1 = \frac{P_{yo} \cdot 360^0}{P_x}. \quad (4.18)$$

4.11- rasmda misol tariqasida o'rtacha quvvatli sanoat korxonasi yuklamalar kartogrammasi ko'rsatilgan. Kartogramma tahlili ko'rsatishicha, korxonaning 3- va 5- sexlari eng ko'p aktiv yuklamalarga ega. Yuqori kuchlanishli iste'molchilar faqat 5- sexda mavjud bo'lib, barcha sexlar kichik kuchlanishli yuklamalar va yoritish qurilmalariga ega. Kartogrammani qurishda doiralarning markazlari sex shakllarining geometrik markazlariga joylashtirilgan.

Qurilgan kartogramma asosida korxonaning yuklamalarining shartli markazi (YUSHM) aniqlanadi. Sex yuklamalari uning yuzasi



4.11- rasm. O'rtacha quvvatli sanoat korxonasi yuklamalar kartogrammasi.

bo'yicha tekis taqsimlangan deb faraz qilinsa, YUSHM sex geometrik shaklining markazida deb qabul qilinadi. Korxonaning YUSHM ini aniqlashda quyidagi formulalardan foydalaniladi:

$$x_0 = \frac{\sum_{i=1}^n P_i x_i}{\sum_{i=1}^n P_i}; \quad y_0 = \frac{\sum_{i=1}^n P_i y_i}{\sum_{i=1}^n P_i}. \quad (4.19)$$

Bunda: P_i ; x_i ; y_i — i - sexning hisobiy aktiv quvvati va uning geometrik markazining koordinatlari.

Agar korxonaga ko'p qavatli binoga joylashgan bo'lsa, uchinchi koordinatani ham hisobga olish kerak. Korxonaning YUSHM koordinatlarini aniqlashda sexlarning yuklamalari va ularning ishlash vaqtlarini nazarda tutib, quyidagi formulalardan foydalanish mumkin:

$$x_0 = \frac{\sum_{i=1}^n R_i x_i T_i}{\sum_{i=1}^n R_i T_i}; \quad y_0 = \frac{\sum_{i=1}^n R_i y_i T_i}{\sum_{i=1}^n R_i T_i}. \quad (4.20)$$

Bunda: T_i — i - sexning ishlash vaqti.

Korxonaga YUSHM ni aniqlashning tanishilgan usuli o'zining soddaligi va oson tasavvur qilina olishi bilan ajralib turadi.

Tanishilgan usulda YUSHM korxonaga hududidagi qo'zg'almas bir nuqta deb qaraladi. Bu esa haqiqatan uzoq bo'lib, yuklamalar grafigi o'zgaruvchan bo'lganligi uchun yuklamalar markazi korxonaga hududi bo'yicha kun davomida o'zgarib turadi. Bundan tashqari sexlar smenalarining o'zgarishi, korxonaning rivojlanishi, qo'shimcha obyektlarning qurilishi elektr yuklamalar markazining o'zgarishiga olib keladi. Kun davomida yuklamalar markazi qandaydir murakkab shaklni chizadi. Maxsus izlanishlarning ko'rsatishicha bu shakl ellipsdan iborat bo'ladi.


Agar har xil sabablarga (texnologik, arxitekturaviy, ekologik va hokazo) binoan BPP ni korxonaning YUSHM ga o'rnatishning iloji bo'lmasa, uni tashqi elektr manbai tomonga siljitish tasviya etiladi.

Agar elektr energiyasi sistemadan markaziy tarqatish punkti (MTP) orqali korxonaga sexlariga uzatiladigan bo'lsa, uning o'rnatilish joyini aniqlashda YUSHM ni aniqlash shart emas.

MTP o'rnini tanlanganda elektr energiyasining teskari tomonga uzatilishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Bunday talab bajarilganda o'tkazgich materiallari tejaladi va elektr energiyasi nobudgarchiligi kamayadi. 4.12- rasmda MTP o'rnining to'g'ri (a) va noto'g'ri (b) joylanishlari ko'rsatilgan.

4.12- b rasmda birinchi sex podstansiyalariga kelayotgan energiyaning yo'nalishi tashqi manbai tomoniga teskari yo'nalgan.

Sexlarning transformator podstansiyalarini iloji boricha iste'molchilar guruhiga yaqin joylashtirish zarur. Bundan tashqari podstansiyaning o'rnini tanlanganda ishlab chiqarish binosining shakli, texnologik qurilmalarining joylanishi, sovitish sharoitlari, yong'indan xavfsizligi va ishlatiladigan elektr jihozlarning turlarini hisobga olish kerak bo'ladi.




4.12- rasm. MTP o'rnining joylashtirish sxemasi.

a—to'g'ri joylashishi; b—noto'g'ri joylashishi. 1, 2, 3, 4—sexlar.

Ko'p hollarda podstansiyalar sex ichida, sex binosiga ichki yoki tashqi tomondan birlashtirilgan tarzda quriladi. Sanoat korxonalarida elektr ta'minotida komplekt transformator podstansiyalari (KTP) keng ishlatiladi. Bunday KTP lar zavodlardan to'la yig'ilgan holda keltiriladi. Ular transformatorlardan, komplekt taqsimlash qurilmalaridan (KTK) tuzilgan bo'lib, manzilga yetkazish oson, kam joyni egallaydi, montaj ishlarini tezkorlik bilan bajarish mumkin.

Misol. 4.13- rasmda ko'rsatilgan korxonaning elektr yuklamlari markazining koordinatalarini aniqlang.

Yechish. 1. Yuklama joylashishining markazi sex maydonining og'irlik markazi bilan to'g'ri keladi deb qabul qilib, ushbu korxonaning sexlarining koordinatalari aniqlaniladi. Buning uchun zavod rejasida koordinat o'qlari chiziladi.



4.13- rasm. Korxonaning elektr yuklamalari markazining koordinatalari. 1, 2, 3, 4, 5—sexlar.

$x_1=1,3$ sm; $x_2=3,5$ sm; $x_3=5,8$ sm; $x_4=1$ sm;
 $x_5=3,8$ sm;
 $y_1=4,2$ sm; $y_2=3,5$ sm; $y_3=2,5$ sm; $y_4=1,6$ sm;
 $y_5=0,8$ sm.

2. Korxonaning elektr yuklamasi markazining koordinatalari aniqlaniladi:

$$x_0 = \frac{630 \cdot 1,3 + 1570 \cdot 3,5 + 1740 \cdot 5,8 + 850 \cdot 1 + 420 \cdot 3,8}{630 + 1570 + 1740 + 850 + 420} =$$

$$= \frac{18852}{5210} = 3,6 \text{ sm.}$$

$$y_0 = \frac{630 \cdot 4,2 + 1570 \cdot 3,5 + 1740 \cdot 2,5 + 850 \cdot 1,6 + 420 \cdot 0,8}{630 + 1570 + 1740 + 850 + 420} =$$

$$= \frac{14187}{5210} = 2,7 \text{ sm.}$$

4.4. QISQA TUTASHUV TOKLARINI HISOBLASH

Qisqa tutashuv deganda, normal ish holatida uchramaydigan, fazalararo tutashuv yoki neytral nuqtasi zaminlangan tizimlarda bir va undan ko'p fazalarning yer bilan tutashuvi tushuniladi.

Uch fazali tizimda quyidagi Q.t lar bo'lishi mumkin:

1. Uch fazali qisqa tutashuv — uchta fazaning bitta joyda va bir vaqtda o'zaro tutashuvi.

2. Ikki fazali qisqa tutashuv – uch fazali tizimda ikkita fazaning bevosita tutashuvi.

3. Bir fazali qisqa tutashuv – neytrali zaminlangan uch fazali tizimda bitta fazaning yerga tutashuvi.

Qisqa tutashuv sodir bo'lishiga asosiy sabablar – bu izolyatsiyaning mexanik shikastlanishi – yer ishlari jarayonida kabelning ishdan chiqishi; chinni izolyatsiyalarning sinishi; havo liniyalari ustunlarining yiqilishi; eskirish, ya'ni izolyatsiyalash xususiyatlarining yomonlashuvi; izolyatsiyaning namlanishi; atmosferada sodir bo'ladigan o'ta kuchlanishdan fazalarning birikishi; har xil o'tkazgich materiallar bilan fazalarning qoplanishi; operativ kommutatsiyalar jarayonida xatoliklarga yo'l qo'yilishi va hokazo.

Q.t. sodir bo'lganda zanjirlarda tokning miqdori keskin ortadi va tizimning ayrim joylarida kuchlanish kamayib ketadi. Q.t. bo'lgan nuqtalarda yoy hosil bo'lishi natijasida apparatlar, mashinalar va boshqa qurilmalar to'la yoki qisman buziladi. Q.t. joyiga yaqin bo'lgan o'tkazgichlar, izolyatorlar va elektr mashinalarining chulg'amlariga katta mexanik kuchlar ta'sir etadi. Yuqori miqdordagi toklar natijasida o'tkazgichlarning qizishidan kabel tarmoqlarida, tarqatish qurilmalarida va elektr ta'minoti tizimining boshqa elementlarida yong'in chiqishi mumkin. Kuchlanishning pasayishi mexanizmlarning normal ish holatining buzilishiga, yuritkich va agregatlarning to'xtashiga olib keladi. Q.t. elektroenergetika tizimiga katta salbiy ta'sir ko'rsatib, generatorlarning parallel ishlashining buzilishi va sistemaning barqarorligi izdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

Q.t. oqibatlarini kamaytirish uchun tizimning shikastlangan qismini tezkor ishlaydigan uzgichlar orqali jadallik bilan o'chirish zarur. Barcha elektr apparatlari, elektr qurilmalarining tok o'tkazuvchi qismlarini shunday tanlash kerakki, ular o'tish jarayonidagi katta miqdorli q.t. toklariga bardosh bera olisin. Buning uchun q.t. toklarini to'g'ri hisoblash va uning miqdoriga qarab elektr apparatlari va qurilmalarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

Q.t. tokining ta'sirini kamaytirishda generatorlar qo'zg'atish toklarini avtomatik rostlashning ahamiyati katta bo'lib, ular avariya holatlarda kuchlanishning kerakli miqdorini ushlab turish imkonini beradi.

Elektr ta'minoti tizimida bir fazali q.t. eng ko'p sodir bo'ladi. Kam uchraydigani va eng xavflisi – uch fazali q.t. bo'lib, elektr qurilmalarini tanlash jarayonida ushbu q.t. toki hisoblanadi. Q.t. tokini hisoblaganda quyidagi cheklanishlar qabul qilinadi:

1. Uch fazali tarmoqlar simmetrik.
 2. Mavjud elektr manbalari elektr yurituvchi kuchlarining fazalari bir xil.
 3. Havo va kabel tarmoqlarida sig'imlar hisobga olinmaydi.
 4. Elektr ta'minoti tizimi elementlari faqat bo'ylanma aktiv va induktiv qarshiliklardan iborat.
 5. Q.t. tokining manbalari vazifasini turbo va gidrogeneratorlar, sinxron kompensatorlar va yuritkichlar, asinxron mashinalar o'taydi.
 6. Magnit tizimlarida to'yinish sodir bo'lmaydi.
 7. Barcha elektr stansiyalardagi sinxron generatorlar qo'zg'atish tokini rostlovchi avtomatik qurilmalar bilan jihozlangan.
- Bu cheklanishlar hisobiy q.t. tokini aniqlashni osonlashtiradi va ko'p bo'lmagan joiz xatoliklarga olib keladi.

Qisqa tutashuv zanjirining parametrlarini aniqlash

Q.t. tokini topish uchun elektr ta'minoti tizimining normal sharoitiga mos keladigan bir liniyali hisoblash sxemasi tuziladi va undagi energiya manbalari parallel ulangan deb qaraladi. Hisoblash sxemasida barcha manbalar (generatorlar, sinxron kompensatorlar, katta quvvatli sinxron va asinxron mashinalar, energosistemalar), transformatorlar, havo va kabel liniyalari, reaktorlar ko'rsatiladi. Hisoblash sxemasi asosida almashtirish sxemasi tuziladi.

Unda tizimdagi barcha elementlarning qarshiliklari ko'rsatiladi va q.t. toki aniqlanishi kerak bo'lgan nuqta belgilanadi. Generatorlar, katta quvvatli transformatorlar, havo liniyalari, reaktorlar almashlash sxemasida induktiv qarshilik sifatida ko'rsatiladi. Kuchlanishi 6–10 kV bo'lgan kabel liniyalar, quvvati 1600 kVA va undan kichik bo'lgan transformatorlar almashlash sxemasida aktiv va induktiv qarshiliklar deb olinadi. Barcha qarshiliklar nomli yoki nisbiy birliklarda olinishi mumkin.

Q.t. tokini hisoblashda kuchlanish va quvvatning bazaviy miqdorlari qabul qilinadi. Bazaviy kuchlanish sifatida q.t. toki

hisoblanayotgan nuqtaning o'rtacha kuchlanishini olish mumkin. Bu esa quyidagi qiymatlardan biri bo'lishi mumkin:

$$U_8 = 230; 115; 37; 105; 63; 3,15; 0,4; \dots 0,23 \text{ kV.}$$


Bazaviy quvvat tariqasida 100 yoki 1000 mVA olinadi. Elektr ta'minoti tizimi ayrim elementlarining qarshiliklarini aniqlash formulalari adabiyotlarda keltirilgan.

S_n – elektr uskunaning to'la nominal quvvati (generator, transformator, energosistema), mVA; S_b – bazaviy quvvat, mVA; S_k – energosistemaning q.t quvvati, mVA; $I_{uz,n}$ – uzgichni nominal uzish toki, kA; X_{sn} – energosistemaning nisbiy nominal qarshiligi; u_q – transformatorning q.t. kuchlanishi; X_r – reaktorning qarshiligi, o_m; P_q – transformatorning q.t nobudgarchiligi, kVt; cr_o, x_o – liniyaning 1 km uzunligiga to'g'ri keladigan aktiv va induktiv qarshilik; L – liniyaning uzunligi, km; U_b – bazaviy kuchlanish, kV; $U_{o'r}$ – elektr uskuna o'rnatilgan joydagi kuchlanishning o'rtacha qiymati, kV; x_d – generatorning o'ta o'tish induktiv qarshiligi.

Sxema elementlarining boshlang'ich parametrlar $x_d \%$, $U_k \%$, R_k , X_o , Ch_o kataloglar yoki ma'lumotnomalardan aniqlanadi. Q.t. almashtirish sxemasida q.t. nuqtasigacha bo'lgan natijaviy qarshilikni aniqlashda quyidagi o'zgartishlar ishlatiladi (4.14-rasm):

1. Qarshiliklarni ketma-ket ulanganda:

$$X_{ekv} = X_1 + X_2 + \dots + X_n \quad (4.21)$$



4.14- rasm. Qarshiliklarni uchburchak va yulduz ulanishlari.

2. Qarshiliklar parallel ulanganda:

$$X_{ekv} = \frac{1}{\frac{1}{X_1} + \frac{1}{X_2} + \dots + \frac{1}{X_n}} \quad (4.14)$$

4.1- jadval

		Hisoblash formulalari	
Elektr qurilma elementi	Almash-tirish sxemasi	nomli birliklarda, Om	nisbiy birliklarda
Generator		$x = \frac{x_d \% U_b^2}{100 S_{nom}}$	$x = \frac{x_d \% S_b}{100 S_{nom}}$
Energosistema		$x = \frac{U_b^2}{\sqrt{3I_{uz,nom}}U_{o'r}}$; $x = \frac{U_b^2}{S_k}$ $x = x_{v,nom} = \frac{U_b^2}{S_{nom}}$	$x_* = \frac{S_b}{\sqrt{3I_{uz,nom}}U_{o'r}}$; $x_* = \frac{S_b}{S_k}$ $x_* = x_{*e,nom} = \frac{S_b}{S_{nom}}$
Transformator		Aktiv qarshilik hisobiga olinganda $r = \frac{P_k U_b^2 10^{-3}}{S_{nom}^2}$ $x = \frac{u_k \% U_b^2}{100 S_{nom}}$ $x = x_p \frac{U_b^2}{U_{o'r}^2}$	Aktiv qarshilik hisobiga olinganda $r = \frac{P_k S_b 10^{-3}}{S_{nom}^2}$ $x = \sqrt{u_k^2 - \left(\frac{Pk}{S_{nom}}\right)^2} \frac{S_b}{S_{nom}}$ $x_* = \frac{u_k \% S_b}{100 S_{nom}}$
Reaktor		$x = x_p \frac{U_b^2}{U_{o'r}^2}$	$x_* = x_p \frac{S_b^2}{U_{o'r}^2}$
Liniya		$x = x_0 \sqrt{\frac{U_b^2}{U_{o'r}^2}}$ $x = x_0 \sqrt{\frac{U_b^2}{U_{o'r}^2}}$	$x_* = x_0 \sqrt{\frac{U_b^2}{U_{o'r}^2}}$ $r_* = r_0 \sqrt{\frac{S_b}{U_{o'r}^2}}$

3. Uchburchakdan yulduzga o'tishda ishlatiladigan munosabatlar:

$$X_4 = \frac{X_1 X_3}{X_1 + X_2 + X_3}; X_5 = \frac{X_1 X_2}{X_1 + X_2 + X_3}; X_6 = \frac{X_2 X_3}{X_1 + X_2 + X_3}. \quad (4.15)$$

4. Yulduzdan uchburchakka o'tishda ishlatiladigan formulalar:

$$X_1 = X_4 + X_5 + \frac{X_4 X_5}{X_6}; X_2 = X_5 + X_6 + \frac{X_5 X_6}{X_4};$$

$$X_3 = X_4 + X_6 + \frac{X_4 X_6}{X_5}. \quad (4.16)$$

Almashtirish sxemasida o'zgartirishlar manbadan q.t. nuqtasiga tomon olib beriladi.

Agar qarshiliklar nisbiy birliklarda hisoblangan bo'lsa, q.t. toki quyidagicha aniqlanadi:

$$I_{n_0} = \frac{I_b}{X_{*n}} \text{ yoki } I_{n_0} = \frac{I_b}{Z_{*n}}.$$

$$\text{Bunda: } I_b = \frac{S_b}{\sqrt{3}U_{o'r}}.$$

X_{*n} – q.t. nuqtasidan manbaga bo'lgan natijaviy qarshilik;

$U_{o'r}$ – q.t. sodir bo'lgan nuqtadagi o'rtacha kuchlanish.

Agar manba kuchlanishi o'zgarmas bo'lsa, ya'ni $X_{*n} \geq 3$ munosabat bajarilganda:

$$I_{n_0} = I_n = I_k.$$

Hisoblash nomli birliklarda olib borilganda q.t toki quyidagicha aniqlanadi:

$$I_{n_0} = \frac{U_{o'r}}{\sqrt{3}X_n}. \quad (4.17)$$

Bunda: U_{ur} – q.t sodir bo'lgan joydagi kuchlanishning o'rtacha qiymati, kV; X_n – manbadan q.t nuqtasigacha bo'lgan natijaviy qarshilik, Om. Hisoblashda aktiv qarshilik ham inobatga olinsa:

$$I_{n_0} = \frac{I_{o'r}}{\sqrt{3}Z_n}. \quad (4.18)$$


Bunda:

$$Z_n = \sqrt{X_n^2 + R_n^2} - \text{natijaviy to'la qarshilik.}$$

Q.t. tokining miqdoriga qarab elektr apparatlari, izolyatorlar, shina va kabellar qabul qilinadi.

Misol. Cheksiz quvvatli sistemadan ta'minlanayotgan iste'molchilar uchun K_p , K_2 , K_3 nuqtalardagi qisqa tutashuv toklarini hisoblang.

Hisob ma'lumotlari 4.15- rasmda keltirilgan.



4.15- rasm. Hisob ma'lumotlari.

Yechish. 1. Hisob nisbiy birlikda olib boriladi. Bazis quvvatni qabul qilamiz: $S_b = 100 \text{ mVA}$.

2. Bazisli nisbiy qarshilik hisoblaniladi:

a) EUL qarshiligi:

$$x_1 = x_0 \cdot I / U_{nom}^2 = 0,4 \cdot 20 \cdot 100 / 115^2 = 0,06;$$

b) transformator qarshiligi:

$$x_2 = \frac{U_k \%}{100} \cdot \frac{S_b}{S_n} = \frac{10,5}{100} \cdot \frac{100}{25} = 0,402;$$

d) podstansiyadan RP gacha bo'lgan kabel liniyasi qarshiligi:

$$x_3 = X_0 I \frac{S_b}{U_N} = 0,08 \cdot 0,5 \cdot \frac{100}{10,5^2} = 0,04;$$

$$r_3 = g_0 l \frac{S_b}{U_N^2} = 0,26 \cdot 0,5 \cdot \frac{100}{10,5^2} = 0,14.$$

e) TP gacha bo'lgan kabel liniyasining qarshiligi:

$$x_4 = X_0 l \frac{S_b}{U_N^2} = 0,08 \cdot 1,6 \cdot 100 / 10,5^2 = 0,14;$$

$$r_4 = g_0 l \frac{S_b}{U_N^2} = 0,71 \cdot 1,6 \cdot 100 / 10,5^2 = 0,25.$$

3. K_1 nuqtasida q.t. toki va quvvati:

$$I_{K1} = I_b / X_{\Sigma 1} = 5,3 / 0,48 = 11,04 \text{ kA},$$

bunda:

$$X_{\Sigma 1} = x_1 + x_2 = 0,06 + 0,42 = 0,48;$$

$$I_b = \frac{S_{\text{baz}}}{\sqrt{3}U} = \frac{100}{1,7 \cdot 10,5^2} = 5,3 \text{ kA};$$

$$i_u = K_{U1} \sqrt{2} I_{K1} = 1,8\sqrt{2} \cdot 11,04 = 28,1 \text{ kA};$$

$$S_{K1} = S_b / X_{\Sigma 1} = \frac{100}{0,48} = 208 \text{ mVA}.$$

4. K_2 nuqtasida q.t. toki va quvvati:

$$I_{K2} = I_b / X_{\Sigma 2} = 5,3 / 0,52 = 10,2 \text{ kA},$$

bunda:

$$X_{\Sigma 2} = x_1 + x_2 + x_3 = 0,06 + 0,42 + 0,04 = 0,52;$$

$$i_u = 1,8\sqrt{2} \cdot 10,2 = 25,96 \text{ kA};$$

$$S_{K2} = S_b / X_{\Sigma 2} = 100 / 0,52 = \frac{100}{0,52} = 192 \text{ mVA}.$$

5. K_3 nuqtasida q.t. toki va quvvati:

$$I_{K3} = I_b / Z_{23} = 5,3 \sqrt{0,66^2 + 1,39^2} = 5,3 / 1,54 = 3,44 \text{ kA};$$

bunda:

$$X_{\Sigma 3} = X_{\Sigma 2} + x_4 = 0,52 + 0,14 = 0,66.$$

$$\tau_{\Sigma 3} = \tau_3 + \tau_4 = 0,14 + 1,25 = 1,39.$$

$X_{\Sigma 3} / r_{\Sigma 3} = \frac{0,66}{1,39}$ bo'lgani uchun, 3 fazali qisqa tutashuv toki-ning davriy tarkibi karraligi: $K_U=1$.

Unda: $i_U = 1 \cdot \sqrt{2} \cdot 3,44 = 4,86 \text{ kA}$.

$S_{K3} = S_6 / Z_{\Sigma 3} = 100 / 1,54 = 64,9 \text{ MVA}$.

4.5. PODSTANSIYALARDAGI ELEKTR APPARATLARNI TANLASH

Elektr apparatlarini tanlash kataloglar yordamida elektr qurilmaning normal rejimdagi ko'rsatkichlari bo'yicha bajariladi. Qabul qilingan apparatni ulanish nuqtasidagi maksimal qisqa tutashuv toki ta'siri bo'yicha tekshirib ko'rilishi zarur. Albatta katalog bo'yicha tanlangan apparatlarning parametrlari (nominal kuchlanishi va toki) elektr qurilmaning ekspluatatsiya sharoitidagi kuchlanish va tok miqdorlariga teng yoki katta bo'lishi kerak.

Ko'p hollarda elektr apparatlari komplekt panellar, shkaflar yoki komplekt taqsimlash punktlari sifatida qabul qilinadi. Apparatlar, qurilmalarni tanlashda ularni korxonaga bo'yicha bir xillashtirishga (unifikatsiyalashga) katta e'tibor beriladi. Bu esa elektr ta'minoti tizimini kam sarf-xarajatlar bilan ratsional ekspluatatsiya qilish imkonini yaratib, ishonchligini oshiradi.

Konkret apparatlarni ma'lum ish rejim sharoitlari uchun qabul qilinganda ko'plab omillarni hisobga olishga to'g'ri keladi. Biz bulardan faqat apparatlarning qisqa tutashuv toki ta'siriga chidamliligiga e'tibor beramiz, ya'ni apparatlarning turg'unligini hisobga olamiz.

1. Kabellarni tanlash. Kabellar, shinalar nominal tok va kuchlanishlar bo'yicha qabul qilinib, qisqa tutashuv tokining termik ta'siriga tekshirib ko'riladi. 10 kV gacha bo'lgan mis yoki alyuminiy simli va qog'oz izolyatsiyali kabellarda q.t. rejimida haroratning qisqa muddatli ortishi 250°C dan oshmasligi kerak. Buning uchun kabel simi ko'ndalang kesimining qiymati quyidagicha aniqlanishi kerak:

$$S_T = \alpha \cdot I_k \cdot \sqrt{t_k}. \quad (4.19)$$

Bunda: I_k – qisqa tutashuv rejimining turg'un toki;

t_k – keltirilgan vaqt davomiyligi, bu vaqt davomida q.t. turg'un toki shunday issiqlik hosil qiladiki, uning miqdori o'zgaruvchan q.t. tokining haqiqiy t vaqtidagiga ekvivalent bo'ladi. t_k – miqdori maxsus adabiyotlarda keltirilgan grafiklar asosida aniqlanadi.

α – kabel simining joiz qizishi haroratining qiymatiga bog'liq bo'lgan koeffitsiyent, uning miqdori 10 kV gacha bo'lgan mis va alyuminiy simli kabellar uchun mos ravishda 7 va 12 ga teng.

Kabel kesimini (4.19) formula bo'yicha aniqlanganda eng yaqin kichik standart kesim tanlanadi.

2. Yuqori kuchlanishli uzgichlarni tanlash. Yuqori kuchlanishli elektr energiyasini uzatish va taqsimlash jarayonida elektr zanjirlarini ulash hamda uzishga to'g'ri keladi. Bu operatsiyalar maxsus uzgichlar (выключатели) vositasida bajariladi. Uzgichlar yordamida elektr toklarni faqat nominal rejimlarda emas, balki har xil avariya va qisqa tutashuv holatlarida ham uzish yoki ulash operatsiyalarini bajarish mumkin.

Ma'lumki, qisqa tutashuv rejimidagi tokning miqdori juda katta bo'ladi. Shuning uchun uzgichlar taqsimlash qurilmalarining eng mas'ul elementlaridan biri hisoblanadi. Tokli zanjirni uzish jarayonida uzgich kontaktlari oralig'ida kuchli elektr yoyi hosil bo'ladi. Ushbu yoyni o'chirish uchun kontaktlarning o'zaro ajralishi ma'lum muhitda sodir etiladi.

Elektr yoyini o'chiruvchi muhitga qarab, uzgichlar yog'li yoki siqilgan havoli bo'lishi mumkin. Birinchi holda yoy o'chiruvchi muhit vazifasini maxsus transformator moyi bajaradi; ikkinchi holda esa yuqori bosimli siqilgan havo ta'siridan elektr yoyi o'chiriladi.

Yuqori kuchlanishli uzgichlarning nominal kuchlanishi va toki, o'chiriluvchi tokning qiymati hamda quvvati bo'yicha qabul qilinadi. Odatda, uzgichning katalogdagi ko'rsatkichlari va hisobiy miqdorlar o'zaro solishtiriladi.

Qisqa tutashuv toki bo'yicha tekshirilganda, uzgichning maksimal uzishi mumkin bo'lgan toki uzgich o'rnatilgan nuqtadan o'tadigan zarb toki bilan qiyoslanadi:

$$i_{\max} \geq i_y.$$

Bundan tashqari uzgichning uzish quvvati hisobiy uzish quvvatidan katta bo'lishi kerak, ya'ni: $S_{h,u} \geq S_{r,u}$.

Uzgichning termik bardoshlilikini tekshirish uchun q.t. tokining issiqlik impulsi – V quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$V = I_t^2 \cdot t.$$

Bunda: I_t – uzgichning q.t. vaqti (t,s) davomiyligida termik turg'unlik toki (katalogda ko'rsatiladi).

Quyidagi shart bajarilishi talab etiladi:

$$I \frac{2}{T} \geq I \frac{2}{k} \cdot t_k. \quad (4.20)$$

Bunda: I_k – q.t. turg'un toki; t_k – q.t. rejimining keltirilgan vaqti.

Kataloglarda besh (I_5) yoki o'n sekundli (I_{10}) turg'un termik toklarning miqdorlari beriladi. (1.2) dan termik bardoshlilik sharti quyidagicha bo'ladi:

$$I_t \geq I_k \cdot \sqrt{\frac{t_k}{t}}. \quad (4.21)$$

3. Ayirgichlarni tanlash. Ayirgichlar (разъединители) kuchlanish ta'siridagi toksiz elektr zanjirlarini uzish yoki ulash uchun ishlatiladi. Ayirgichlar elektr zanjirlarida ko'rinib turuvchi uzun oraliqni hosil qiladi. Ayirgichlarda elektr yoyni o'chiradigan moslamalari bo'lmaganligi uchun ular uzgichlardan keyin yoki oldin o'rnatiladi. Ayirgichlar ta'mirlash ishlarida yoki uzuvchi apparatlarni reviziya qilinayotganda xavfsizlikni ta'minlashda ishlatiladi.

Ayirgichlar yordamida transformatorlarning salt ish rejimidagi tokni; transformatorlarning neytral tokini, katta bo'lmagan zaminlash toklarni, zaryad toklarini uzish mumkin. Ayirgichlar 6 kV va undan yuqori kuchlanishlarga mo'ljallangan bo'lib, nominal toklari 200 A dan katta bo'ladi.

Ayirgichlarni tanlash va tekshirish uzgichlar uchun ko'rsatilgan tartibda bajarilib, uzish toki va quvvati bo'yicha tekshirilmaydi.

4. Yuqori kuchlanishli saqlagichlarni nominal kuchlanish va tok orqali qabul qilinadi va maksimal uzuvchi tok hamda quvvat bo'yicha tekshirib ko'riladi:

$$I_{uz} \geq I_k.$$

Bunda: I_{uz} – saqlagichning eng katta uzish toki (katalogda keltiriladi).

5. Tok transformatorlarini tanlash. Tok transformatorlari nominal tok, nominal kuchlanish, ikkilamchi chulg'amning yuklamasiga bog'liq bo'lgan aniqlik darajasiga qarab qabul qilinadi va elektrodinamik hamda termik turg'unliklar (K_{din} va K_T) bo'yicha tekshirilib ko'riladi. Elektrodinamik bardoshlilik quyidagi shart bajarilganda sodir bo'ladi:

$$K_{din} \geq \frac{i_3}{\sqrt{2 \cdot I_{n1}}} \text{ yoki } K_{din} \cdot \sqrt{2 \cdot I_{n1}} \geq i_3.$$

Bunda: K_{din} – tok transformatorlari uchun kataloglarda berilgan bo'ladi; I_n – transformator birlamchi chulg'amining nominal toki.

Termik bardoshlilik karraligi kataloglarda 1 sek. davomiylik uchun beriladi va quyidagicha bo'lishi kerak:

$$K_T \geq \frac{I_k \cdot \sqrt{t_k}}{I_{n1}} \text{ yoki } (I_{n1} \cdot K_T)^2 \geq I_k^2 \cdot t_k.$$

Agar tok transformatorining ikkilamchi chulg'amidagi yuklama quyidagi shartni qanoatlantirsa, uning aniqligi talab darajasida bo'ladi:

$$S_{2n} \geq S_x.$$

Bunda: S_{2n} – ikkilamchi chulg'amning nominal yuklamasi ma'lumotnomalarda keltiriladi.

S_x – tok transformatorining ikkilamchi chulg'amining hisobiy quvvati (VA).

$$S_x \approx I_{2n}^2 \cdot (r_n + r_s + r_k).$$

Bunda: I_{2n} – ikkilamchi chulg'amning nominal toki ($I_{2n}=5A$);
 r_n – ushbu chulg'amga ulangan asboblarning chulg'amlarining aktiv qarshiligi;

r_s – o'lchashda ishlatiluvchi simlarning qarshiligi;

r_k – kontaktlarning qarshiligi ($r_k=0,1 \text{ Om}$).

Ikkilamchi chulg'amdagi simlarning ko'ndalang kesimi alyuminiyli o'tkazgichlar uchun $2,5 \text{ mm}^2$, misli o'tkazgichlarda esa $1,5 \text{ mm}^2$ dan kam bo'lmasligi kerak.

6. Kuchlanish transformatorini tanlash. Elektr o'lchov asboblari ulash uchun ishlatiladigan kuchlanish transformatorlari nominal kuchlanish va yuklamaning miqdori asosida

qabul qilinadi. Zaminlash toki kam bo‘lgan tarmoqlarda izolyatsiya holatini nazorat qilib turish uchun besh sterjenli kuchlanish transformatori ishlatiladi. Kuchlanish transformatorining quvvati chulg‘amlari parallel ulangan elektr asboblarning qabul qiladigan to‘la quvvatidan katta bo‘lishi kerak, ya’ni:

$$S_N \geq S_2 = \sqrt{P_\Sigma^2 + Q_\Sigma^2}.$$

Bunda: $P_\Sigma = S_2 \cos\varphi$ – asboblarning g‘altaklarining iste’mol qiladigan aktiv quvvati;

$Q_\Sigma = S_2 \cdot \sin\varphi$ – asboblarning g‘altaklarining iste’mol qiladigan reaktiv quvvati.

Misol. Nominal toki $I_n = 320$ A, kuchlanishi 10 kV, $i_3 = 17$ kA, $I_k = 10$ kA, $t_k = 2,1$ sekund bo‘lgan liniya uchun uzgich, ajratgich va tok transformatorini tanlang.

Yechish. VMP-10K (600A; 10kA) tipli yog‘li uzgich, RV-10/400 tipidagi ajratgich va TPLM -10/400-0,5/R tipidagi qo‘sh ikkilamchi chulg‘amli tok transformatori qabul qilinadi. $K_{din} = 160$; $K_t = 65$. Tanlangan qurilmalarning joiz ko‘rsatkichlari va hisobiy natijalar berilgan. Qiyosiy tahlildan ma’lum bo‘ladiki, qabul qilingan uzgich, ajratgich va tok transformatorlari maqsadga muvofiq tanlangan.

4.6. HIMOYAVIY ZAMINLASH

Elektr qurilmalariga xizmat ko‘rsatishda tok o‘tkazuvchi izolyatsiyalanmagan qismlar bilan bir qatorda normal rejimda kuchlanish ta’sirida bo‘lmagan elektr uskunalarning metall qismlari ham xavfli hisoblanadi. Chunki ular izolyatsiyaning shikastlanishi natijasida tok o‘tkazuvchi qismlarga tegib qolishi mumkin. Bularga yuritkichlarning korpuslari, transformatorlarning baklari, shinali o‘tkazgichlarning qobiqlari, shchitlarning metall karkaslari, har xil dastgohlarning korpuslari va barcha elektr qurilmalarining metall korpuslari kiradi.


Himoyaviy zaminlash deganda, elektr qurilmalarining normal rejimda kuchlanish ta’sirida bo‘lmagan metall qismlarini ehtiyotkorlik shartidan kelib chiqqan holda yerga ulash tushuniladi. Himoyaviy zaminlash bajarilgan bo‘lsa, izolyatsiyasi shikastlanib, metall korpus tokli simga tegib qolgan taqdirda,

korpus bilan kontaktida bo‘lgan shaxs xavfli kuchlanish ta‘sirida bo‘lmaydi.

Zaminlash qurilmasi deb, zaminlagich va zaminlovchi simlar birlashmasiga aytiladi. Zaminlagich yer bilan bevosita kontaktida bo‘ladigan metall o‘tkazgichdan iborat. Zaminlovchi simlar qurilmalarining metall korpuslarini zaminlagichlar bilan birlash-tiradi.


Faraz qilaylik, o‘tkazgich bilan uzgich korpusi oralig‘idagi izolyatsiya shikastlanib, biror faza korpusga ulanib qolgan bo‘lsin. Tok korpus, zaminlovchi sim va zaminlagich orqali 4.16- rasmda ko‘rsatilgan yo‘nalishda yerga o‘tadi. Voltmetr yordamida zaminlagichdan har xil masofadagi yer yuzasining potentsiallar farqini o‘lchab, rasmda ko‘rsatilgan potentsialning tarqalish grafigini chizish mumkin.

Ko‘rinib turibdiki, eng yuqori potentsial zaminlagichga to‘g‘ri keladi va unda 15–20 m uzoqlikda esa potentsialning qiymati nolga yaqinlashadi.



4.16- rasm. Potentsialning tarqalish grafigi.

Korpusi zaminlan-gan elektr qurilmasidan 0,8 m masofada joy-lashgan yer sathidagi nuqta bilan zaminla-gich orasidagi potens-iallar farqini urinishi kuchlanishi (напря-жение прикоснове-ния) deb ataladi. Za-minlagich yaqindagi 0,8 m oraliqdagi potens-iallar farqini odim kuchlanishi (qadam oralig‘idagi kuchlanish) deyiladi.



4.1- rasm. Sun‘iy zaminlagichlar.

a—yuqori qismi yer sathi bilan bir xil; *b*—yer sathidan 0,5–0,7 m chuqurlikda joylashishi.

Yerning tok tarqa-layotgan qismidagi qar-shilikni yoyilish qar-shiligi deyiladi va bu qarshilikni zaminla-

gichga tegishli deb qaralib, uning miqdori quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$R_z = \frac{U_z}{I_z}.$$

Bunda: U_z – zaminlagich bilan nol potentsiallik nuqta orasidagi kuchlanish; I_z – zaminlagich orqali o‘tuvchi tok.

Tuproqning nisbiy qarshiligi uning strukturasi, harorati, tarkibining namligi va elektrolitlarga bog‘liq. Eng katta qarshilik qish kunlari tuproq muzlaganda va yoz kunlarida tuproq quriganida kuzatiladi.

O‘zgaruvchan toklarda zaminlovchi qurilmalar sifatida birinchi navbatda tabiiy zaminlagichlarni ishlatish kerak. Bunday zaminlagichlarga vodoprovod quvurlari, kabellarning metall qobiqlari, elektr tarmoqlarning nol simlari, binolar hamda inshootlarning metall va temir-beton konstruksiyalari kiradi.


Yuqori haroratli suyuqlik, portlashi mumkin bo‘lgan gazlarni uzatuvchi quvurlar, kabellarning alyuminiy qobiqlari, tunnellardan o‘tkazilgan alyuminiy o‘tkazgichlar va kabellarni zaminlagich vositalar sifatida ishlatish mumkin emas. Tabiiy zaminlagichlarning eng yaxshi afzalligi — bu yoyilish qarshiligining kichik bo‘lishidir.

Sun‘iy zaminlagich deganda, yerga ko‘miladigan maxsus metall elektrodlar tushuniladi. Odatda, ular vertikal elektrodlardan (quvur, sterjen, burchaksimon metall) tashkil topgan bo‘lib, yuqori qismi yer sathi bilan bir xil yoki yer sathidan $0,5 \pm 0,7$ m chuqurlikda bo‘lishi mumkin (4.17- *a, b* rasmlar).

Ko‘p hollarda bitta vertikal elektrod zaminlagichning kerakli qarshiligini ta‘minlay olmaydi. U holda n ta vertikal elektrodlar ishlatilib, ular metall tasma bilan birlashtiriladi va zaminlash qatori yoki yopiq konturi hosil qilinadi. (4.18- *a* rasm).

Rasmda 1–metall elektrod; 2–metall tasma; 3–potentsiallarni tenglashtiruvchi gorizontaal elektrodlardan tuzilgan to‘r. Potentsiallar farqini kamaytirish maqsadiga erishiladi.

4.18- rasm. Zaminlash qatori yoki yopiq kontur.



didida zaminlanishi kerak bo'lgan obyektning atrofiga elektrodlar yopiq kontur qilib joylashtiriladi va ularni gorizonta1 elektrodlar bilan birlashtiriladi.

Bundan tashqari kontur ichkarisida qo'shimcha gorizonta1 elektrodlar yordamida, o'lchovlari 6 x 6 m bo'lgan yacheykalardan tuzilgan to'r hosil qilinadi (4.18- b rasm).

Vertika1 elektrodlarning o'lchamlarini qabul qilishda:

- kam metall sarflab, zaminlagichning kerakli qarshiligini;
- elektrodni tuproqqa kirgizish jarayonida mexanik chidamlilikni;

- tuproqda joylashtirilgan elektrodlarni korroziya (zanglash)dan saqlashni ta'minlashga e'tibor berish kerak.

Elektrodni tuproqqa kiritishda quvur va burchaksimon metallar katta mexanik chidamlilikka ega, yumaloq sterjenning mexanik mustahkamligi esa kam hisoblanadi. Odatda, vertika1 elektrodlarning uzunliklari 2–3 m bo'ladi. Quvurlarning 1–2 diametrligi, burchaksimon metallarning №50 va №60 (o'lchamlari 50x50 va 60x60 mm) lari, dumaloq sterjenlarning diametri 12–16 mm lari ishlatiladi.

Korroziyaga chidamliligi nuqtai nazaridan zaminlagichlarning quyidagi eng kichik o'lchamlari belgilangan: yumaloq sterjenlarning diametrlari 6 mm; tasmalarning yuzasi 43 mm²; quvur devorlarining va burchaksimon metallarning qalinliklari mos ravishda 3,5 mm va 4 mm dan kam bo'lmasliklari kerak.

Zaminlagich qurilmalariga qo'yiladigan talablar. Kuchlanishi 1000 Voltgacha bo'lgan qurilmalarda zaminlagich va zaminlovchi simlarning qarshiligi 4 Om dan ortmasligi kerak. Agar iste'molchilar 100 kVA li transformator yoki generatordan energiya bilan ta'minlansa, zaminlash qurilmasining qarshiligi 10 Om gacha bo'lishi mumkin. Neytrali zaminlangan uch fazali tarmoqlarda elektr qurilmalarining metall korpuslari, havo liniyalarining metall ustunlari va temir-beton ustunlarning metall qismlari neytral simga bevosita ulanadi. Neytrali zaminlangan tarmoqlarda bir fazali qisqa tutashuv sodir bo'lgan qismni avtomatik ravishda uzish uchun quyidagi shartlar bajarilishi talab etiladi:

1. Metall korpusiga q.t. sodir bo'lgan joyga yaqin o'rnatilgan saqlagichning eruvchan qismining nominal toki q.t. tokidan kamida uch marta kichik bo'lishi kerak.

2. Agar saqlagich o'rnida avtomatik uzgich ishlatilgan bo'lsa, uning maksimal relyesining nominal toki q.t. tokidan kamida 1,4 marta kichik bo'lishi zarur.

Kuchlanishi 1000 Voltdan yuqori bo'lgan, neytrali izolyatsiyalangan elektr uskunalari uchun zaminlash qurilmasining qarshiligi 10 Om dan ortmasligi kerak.

Kuchlanishi 1000 Voltdan yuqori bo'lgan, neytrali bevosita yerga ulangan elektr uskunalari uchun zaminlovchi qurilmaning qarshiligi 0,5 Om dan oshmasligi kerak. Bunday uskunalarining zaminlash qurilmalari bajarilayotganda, potentsiallarni tenglash-tirishga katta e'tibor berilishi kerak, chunki ularda bir fazali qisqa tutashuv sodir bo'lganda, zaminlash qurilmasidagi kuchlanishning miqdori ortib ketadi.

Zaminlovchi simlarni qabul qilinayotganda uning kesimi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$S = I_x \frac{\sqrt{t_n}}{S}.$$

Bunda: I_x – o'tkazgichdan o'tadigan tokning hisobiy qiymati, A; t_n – q.t tokining vaqt davomiyligining keltirilgan qiymati, s; S – o'zgarmas son (po'lat uchun $S=74$, mis uchun $S=195$, mis simli kabellar uchun $S=182$, alyuminiy va alyuminiy simli kabellar uchun $S=112$).

O'Z-O'ZINI TEKSHIRISH SAVOLLARI

1. Sanoat korxonalarining elektr ta'minoti sxemalari turlarini aytib bering.
2. Podstansiyaning texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlari nimalardan iborat?
3. Podstansiyadagi transformatorlar soni qanday ko'rsatkichlar bo'yicha olinadi?
4. Transformatorning normal ish sharoiti qanday tushuniladi?
5. Transformatorni sistematik va avariya holatlarida o'ta yuklatish nima?
6. Podstansiya transformatorining optimal ish rejalarini tushuntirib bering.
7. Korxonada BPP o'rnini to'g'ri tanlashning ahamiyati nimada?
8. Kartogramma tuzish tartibini tushuntirib bering.
9. Kartogramma doiralarning sektorlari nimalarni ko'rsatadi?

10. *MTP o'rnatish joyi qanday aniqlanadi?*
11. *Korxonalarning o'rnatilgan quvvatlari bo'yicha bo'lishini tushuntirib bering.*
12. *Tashqi ta'minot sxemalarining turlarini chizib bering.*
13. *Qanday ichki ta'minot sxemalarini bilasiz?*
14. *Aralash sxemalar qanday tuziladi?*
15. *Qisqa tutashuvga ta'rif bering.*
16. *Q.t. sodir bo'lish sabablari nimalardan iborat?*
17. *Q.t. tokni hisoblashdagi cheklanishlarni tushuntirib bering.*
18. *Q.t. zanjirning parametrlarini qanday formulalar asosida aniqlanadi?*
19. *Q.t. zanjirlarining natijaviy qarshilikni aniqlash usullarini tushuntirib bering.*
20. *Elektr apparatlari qanday ko'rsatkichlar bo'yicha tanlanadi?*
21. *Kabellarni tanlashni tushuntirib bering.*
22. *Issiqlik impulsini aniqlashda ishlatiladigan munosabatni tahlil qiling.*
23. *Elektrodinamik va termik bardoshlilik nima?*
24. *Tok va kuchlanish transformatorlari qanday tanlanadi?*
25. *Himoyaviy zaminlash deganda nima tushuniladi?*
26. *Yoyilish qarshiligiga ta'rif bering va uning miqdorini aniqlash formulasini keltirib chiqaring.*
27. *Sun'iy zaminlagichga ta'rif bering.*

V BOB.
RELYELI HIMOYA. O‘TA KUCHLANISHLAR VA
O‘TA KUCHLANISHLARDAN HIMOYA

5.1. RELYELI HIMOYANING VAZIFASI VA ASOSIY
TALABLAR

Elektr sistemalar elektr stansiyalarining elektr qurilma va asboblarida, elektr uzatish liniyalarida, elektr energiyasining iste'molchilarida normal va ishdan chiqish, shikastlanish holatlarini uchratish mumkin. Ishdan chiqish yoki shikastlanish ko'p hollarda elektr sistemaning elementlarida tokning me'yoridan ortib ketishi yoki kuchlanishning pasayishi bilan bog'langan. Me'yoridan oshib ketgan tok katta miqdorda issiqlik ajralib chiqishiga olib keladi. Buning natijasida elektr uzatish liniyalari va qurilmalari xavfli qizishi hamda shikastlanishi mumkin.

Kuchlanishning normadan pasayishi elektr iste'molchilarning normal ishlashiga yo'l qo'ymaydi. Parallel ishlayotgan generator va energetika sistemasining turg'unligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, elektr qurilmalarining shikastlanishi energetika sistemalarining va elektr iste'molchilarining ish faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Elektr sistemalarining normadan yuqori holatlari esa energetika sistemasining shikastlanishiga yoki ishdan chiqishiga imkoniyat yaratadi.

Elektr sistemalari va elektr iste'molchilarining normal ishlashlari uchun shikastlangan qurilma, elektr liniyalari tezda aniqlanilishi va uzilishi kerak, shu orqali qolgan elektr iste'molchilarni va energetik sistemani normal ishlashiga sharoit yaratiladi.

Yuqorida ko'rsatilganlardan xulosa qilib shuni aytish mumkin, elektr sistemalari va elektr iste'molchilarini shikastlanish hamda normadan tashqari holatlardan saqlash uchun uning elementlarini himoyalovchi avtomatik qurilmani qurish va ishlatishga elektr sistemaning talabi katta.

Elektr sistemasida dastavval himoya qurilmasi qilib eruvchan saqlagichlar ishlatilgan. Quvvatlar va kuchlanishlarning ortishi elektr sistemalarining ulanish sxemalarining murakkablashishi erib

ketuvchi saqlagichlarning ko‘p kamchiliklarini namoyon qildi va buning oqibatida yangi himoyalovchi qurilma yaratildi. Bu himoyalovchi qurilma maxsus avtomat-relyeli himoyada amalga oshiriladi va relyeli himoya deb nomlanadi.

Relyeli himoya elektr avtomatikaning asosiy turi bo‘lib, usiz hozirgi zamon elektr sistemalari normal, aniq va mustahkam ishlay olmaydi. U energetika sistemasining barcha elementlarining holatlarini doimo tekshirib nazorat qilib boradi.

Energetika sistemasida nonormal sharoit yoki holat bo‘lganda himoya uni aniqlaydi va bu holatning xarakteriga qarab, normal sharoitni tiklash uchun kerakli bo‘lgan amallarni qo‘llaydi yoki navbatchi shaxsga xabar beradi.

Hozirgi zamon energetika sistemasining relyeli himoyasi elektr ta‘minotini tez tiklovchi va tizimni normal holatga keltiruvchi mustahkam va aniq elektr avtomatikasi bilan ta‘minlangan.

Elektr avtomatikasining qurilmalariga qayta ulash avtomatikasi (AKU), avtomatik davr tezlikni o‘chirish (ADO‘) va zaxira manbaini avtomatik ulash (ZAU) kiradi.


Relyeli himoyasiga qo‘yiladigan talablar:

a) tanlovchanlik (selektivlik).

Tanlovchanlik — bu himoyaning shunday xususiyatiki, bunda faqat shikastlangan elektr liniyaning qisminigina o‘chiriladi.

5.1- rasmda shikastlanish qismlarini tanlab o‘chirishga misollar keltirilgan. K_1 nuqtada qisqa tutashuv yuz berganda shikastlangan liniyani qisqa tutashuvga yaqin bo‘lgani uchun, D_V o‘chirgich o‘chiradi. Bunda qolgan hamma iste‘molchilar (shikastlangan liniyadan tashqari) ishlab turadi.

Shu misoldan ko‘rinib turibdiki, agar podstansiya bilan bir necha liniyalar ulangan bo‘lsa, u holda bir liniyadagi qisqa



5.1- rasm. Shikastlangan qismlarni tanlab o‘chirish sxemasi.

tutashuvni tanlab o'chirish bu pasaytiruvchi podstansiyasini boshqa liniyalar bilan ulanishini saqlab qoladi va iste'molchilarning uzluksiz energiya ta'minotiga sharoit yaratiladi. Shunday qilib, tanlovchanlik talabi iste'molchilarning turg'un energiya bilan ta'minlashning asosiy sharti bo'lib xizmat qiladi;

b) tezkorlik (tezlik bilan o'chirish).

Qisqa tutashuvni o'chirish mumkin qadar katta tezlikda, qisqa vaqtda olib borilishi kerak, chunki bu elektr qurilmalarini ishdan chiqishiga, liniyalarni avtomatik qayta ulash effektivligini oshirishga, iste'molchilarda kuchlanish tushishi vaqtini kamaytirishiga, generatorlarning elektr sistemasi bilan turg'un parallel ishlashlariga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Elektr qurilmalarining tuzilish qoidalari ko'rsatadiki, agar qoldiq kuchlanish normadan 60% kam bo'lsa, u holda turg'unlikni saqlash uchun shikastlanishni tez o'chiruvchi relyeli himoyalarni qo'llash kerak.

Tezkor va tanlovchan himoyalarni yaratish juda muhim va relye himoya texnikasining asosiy masalasidir;

d) sezgirlik.


Himoyalar qisqa tutashuv paytida normal holatdan bo'lgan o'zgarishlarni sezishlari uchun ular o'rnatilgan zonalarda ma'lum bir sezgirlikka ega bo'lishi kerak.

Har bir himoya (masalan: 5.2- rasmdagi) AB uchastkadagi shikastlanishlarni o'chirishi kerak (birinchi himoyaning birinchi uchastkasi) va bundan tashqari u BD uchastkada qisqa tutashuv bo'lganda, II himoya ishlamas ma'lum vaqtdan so'ng ishlashi kerak. Birinchi himoyaning I.I uchastkasida ta'sir qilinishi uzoqdan rezervlash deyiladi.

Keyingi himoyaning uchastkani zaxiralashi muhim talablardan biridir.

5.2- rasmdagi I himoyaning III uchastkasida qisqa tutashuv bo'lganda ishlashi talab qilinmaydi, chunki III uchastka himoyasi yoki o'chirg'ichi ishlamay qolganda II himoya ishlashi kerak. Birdaniga ikkita himoyaning (ikkita uchastkadagi) ishlamay qolishi kam ehtimolga ega, shuning uchun bunday hollar hisobga olinmaydi.

Ma'lum bir turdagi himoyalar ishlash prinsiplariga ko'ra o'zining ta'sir zonasi (asosan, uchastkasi)dan tashqarida ishla-



5.2- rasm. Himoyaning ta'sir zonalari.

maydi. Bu himoyalarning sezgirligi birinchi uchastkada to'la ta'minlanishi zarur. Ikkinchi uchastkaning himoyasini zaxiralaash uchun bunday hollarda zaxira (rezerv) himoya qo'llaniladi.

Himoyalarning sezgirligi shu darajada bo'lishi kerakki, ular sistemalarning minimal rejimlaridagi qisqa tutashuvlarda ham ishlashi kerak, chunki bu hollarda kuchlanishlarning qiymatlari juda kichik bo'ladi.

Shunday qilib, himoyaning sezgirligi shunday bo'lishi kerakki, u o'rnatilgan zonada (zona oxirida) elektr sistemalari minimal rejimlarida va elektr yoylari orqali tutashuv bo'lganda ham uni sezishi va ishlashi kerak.

Himoyaning sezgirligi sezgirlik koeffitsiyenti bilan xarakterlanadi. Qisqa tutashuv tokini sezuvchi himoyalar uchun sezgirlik koeffitsiyenti quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$K_{sez} = \frac{I_{k.m.min}}{I_{him}}$$

Bunda: $I_{k.m.min}$ – minimal rejimdagi qisqa tutashuv toki;
 I_{him} – himoya ishlashi uchun yetarli bo'lgan tok miqdori.
 e) ishonchlilik.


Himoya qisqa tutashuv u o'rnatilgan zonadan tashqarida yuz berganda ham beto'xtov ishlashi kerak, shuningdek, ular ishlamasligi kerak bo'lgan hollarda va hisoblanmaganda aniq ishlamasligi kerak.

Himoyaning ishonchli ishlashi, sxemaning soddaligi, unda o'rnatilgan relye, ularning kontaktlarining soni, o'rnatilish va bajarilish sifati, o'rnatish materiallari, xizmat ko'rsatishga juda bog'liq.

5.2. RELYE HIMOYASINING TURLARI. TOKLI HIMOYALAR

Avval aytganimizdek, qisqa tutashuv vaqtida katta tok paydo bo‘ladi. Bu katta toklardan himoya qilish uchun tokli himoya ishlatiladi. Tokli himoyaning eng keng qo‘llaniladigan turi bu maksimal tokli himoyadir (MTH). Tokning qiymati ma‘lum bir miqdordan ortganda MTH ishga tushadi. Bir tarafdin ta‘minlanadigan liniyalar uchun MTH asosiy himoya hisoblanadi.

Selektivlik sabr vaqti bilan ta‘minlanadi (5.3-rasm).



5.3- rasm. MTH ning pog‘onali sxemasi.

K_1 nuqtada qisqa tutashuv bo‘lganda tok tarmoqning har bir uchastkasidan o‘tib boradi. Natijada hamma himoyalar ishga tusha boshlaydi. Lekin selektivlik sharti bo‘yicha faqat shikastlangan liniyadagi himoya ishlashi kerak. Bu shart bajarilishi uchun MTH sabr vaqtli qilib amalga oshiriladi.

Sabr vaqti manbaga yaqinlashgan sari ortib boradi. Shuning uchun K_1 nuqtada qisqa tutashuv bo‘lganda oldin 3 himoya ishga tushib shikastlangan liniyani o‘chiradi. 1 va 2 himoyalar esa sabr vaqti katta bo‘lgani uchun ishlab ulgurmasdan boshlang‘ich holatga qaytadi.

MTH ning ishlash toki yuklamaning maksimal ishlash tokidan katta bo‘lishi kerak:

$$I_{xm} > I_{i.maks}.$$

Sezgirlik koeffitsiyenti uchun quyidagi shart bajarilishi kerak:


$$K_s = \frac{I_{q \min}}{I_{km}} > 1,5.$$

Tokli kesim (TK) tokli himoyaning bir turi hisoblanib, bu tokli himoya qisqa tutashuvni tez o'chirish uchun ishlatiladi (5.4- rasm):

$$t_{tk} = 0,04 - 0,06s.$$

T_k ning ishlash toki $I_{km} > I_{qtmaks}$.

Bunda: I_{qmak} — K_1 nuqtadagi qisqa tutashuv toki.



5.4- rasm. Generatorlar himoyasi.

Generatorlardagi shikastlanishlar stator va rotor chulg'amlarida yuz beradigan izolyatsiyaning buzilishi oqibatidir.

Stator chulg'amida, asosan, fazalararo qisqa tutashuv, chulg'amning korpusga tutashuvi va bir fazadagi o'ramlarning qisqa tutashuvi uchraydi. Rotorda esa chulg'amni korpusga bir, ikki nuqtada tutashuvi tez uchraydi.

Generatorlarda bo'ladigan nonormal holatlar:

1. Stator chulg'amidagi nominal tokdan yuqori toklar (o'ta yuklanish).
2. Stator fazalarini nosimmetrik yuklamalari (nosimmetrik qisqa tutashuv natijasi).
3. Kuchlanishning ortishi (to'satdan yuklama kamayganda).

Generatorlarni ichki shikastlanishlar va xavfli nonormal holatlardan saqlash uchun maxsus himoyalar o'rnatiladi. Bu himoyalar generatorni tarmoqdan asosiy o'chirgich yordamida ayirib, rotor chulg'amidagi tokni ham to'xtatadi.

Asosiy himoyalar:

1. Uch fazali differensial himoya.
2. Yerga ulanishdan bir fazali himoya.
3. MTH yuklanishdan himoya.
4. O'ta yuklanishdan himoya.
5. O'ta yuklanishdan rotorning himoyasi.

Transformatorlar himoyasi

Transformatorlarda uchraydigan shikastlanish turlari:

- 1) bir fazadagi o'ramlarning qisqa tutashuvi;
- 2) chulg'amlarning fazalararo tutashuvi;
- 3) chulg'amlarning yer bilan tutashuvi;
- 4) po'lat o'zakning shikastlanishi.

Nonormal holatlar


- 1) chulg'amda katta toklar paydo bo'lishi (o'ta yuklanish ta'sirida);
- 2) tashqi qisqa tutashuv;
- 3) kuchlanish ortishi (500—750 kV li tarmoqlarda).

Asosiy himoyalar

- 1) MTH;
- 2) Kichik quvvatli $S_n < 1600$ kVA transformatorlarda tokli kesim qo'llaniladi;
- 3) $S_n > 1600$ kVA li transformatorlar uchun differensial himoya;
- 4) o'ta yuklanishdan himoya;
- 5) gazli himoya.

Differensial himoya

Toklarni ayirmasiga ulangan relye yordamida bajarilgani uchun himoya differensial himoya deyiladi va faqat transformatorni himoya qiladi (5.5- rasm).



5.5- rasm. Transformatorning differensial sxemasi.
I'—TT1 dagi tok. I''—TT2 dagi tok. KAD — relye.

Gazli himoya

Transformatorning ichki shikastlanishlaridan himoya qilish uchun gazli himoya ishlatiladi.

Transformatorning qoplamasi ichidagi bo'ladigan shikastlanishlarda elektr yoy hosil bo'lib yoki ichki detallar qizib texnik yog'ni, izolyatsion materiallarni parchalashga olib keladi. Buning natijasida uchuvchi gazlar hosil bo'ladi.

Gazlar yengil bo'lgani uchun eng yuqori joy kengaytirgichga ko'tariladi. Gazlar ko'payib katta bosim hosil qiladi, bosim ostida yog' harakatga kelib transformatorning tashqarisidagi kengaytirgich tomonga siljiydi.

Maxsus gazli relyelar transformatorning qoplamasi bilan kengaytirgich orasidagi quvurga o'rnatiladi. Relyedan o'tin gaz va yog'ning miqdoriga qarab relye signal beradi va transformatorni o'chirishga komanda beradi.

Motorlarning himoyasi

1. Sinxron motorlar (SD) himoyasi

a) stator chulg'amlarining fazalararo tutashuvidan (tokli kesim yordamida);

b) stator chulg'aming yer bilan tutashuvidan (bu himoya yerga tutashuv toki 10 amperdan katta bo'lganda bajariladi);

d) o'ta yuklanishdan (bu himoya bir fazali qilib yig'iladi, himoyaning ishlash toki nominal tokning 1,25—1,75 qismiga teng);

e) asinxron rejimdan;

f) kuchlanish pasayishidan (bu himoyaning ishlash kuchlanishi nominal kuchlanishning 0,5—0,7 qismiga teng qilib olinadi).

Normal holatda rotordan o'zgarimas tok oqadi. Sinxronlik buzilganda rotorda qo'shimcha o'zgaruvchan tok paydo bo'ladi, bu esa tezlikning va stator tokining o'zgarishiga olib keladi. Bu holat *asinxron rejim* deyiladi. Asinxron rejim ta'sirida motor tez qizib ketadi. Asinxron rejim kuchlanish juda pasayib ketganda vujudga keladi.

2. Asinxron motorlar (AD) himoyasi

a) fazalararo qisqa tutashuvdan (bu himoya tokli kesim yordamida bajarilib, ishga tushish toki ($I_{ish.t.t.}$) va o'zini-o'zi ishga tushirish tokida ($I_{o.o.t.}$) ishlamaydigan qilib sozlanadi).

b) o'ta yuklanishdan (bu himoya MTH yordamida bajariladi).

$$I_{o.o.t.} = \frac{K_u}{K_z} \cdot I_{nom.}$$

Bunda: K_u — ishonchlilik koeffitsiyenti;

K_q — relyening qaytish koeffitsiyenti;

I_{nom} — motorning nominal toki;


himoyaning ishlash vaqti $t > t_{ish.t.t.} = 10-15$ sek.

d) kuchlanish pasayishidan (bir xil uncha muhim bo'lmagan asinxron motorlar o'chirilib turiladi, qolgan muhimroq motorlar shu orada bemaol o'z-o'zidan ishga tushib ketishi uchun imkon beriladi).

Liniyalar himoyasi

a) sabr vaqti 0 ga teng bo'lgan tokli kesim;

b) sabr vaqti 0,5 sek. ga teng bo'lgan tokli kesim (5.6- rasm);



5.6- rasm. Tokli kesim va maksimal tok himoya sxemasi.

d) bir tarafdin ta'minlanadigan liniyalar uchun maksimal himoyasi;

e) ikki tarafdin ta'minlanadigan liniyalar uchun yo'naltirilgan himoya qo'llaniladi;

f) yerga ulanishdan himoya (bu himoya neytrali yerga ulangan tarmoqlarda bajariladi).

1KA, 2KA tok relyelari tokli kesim uchun sozlangan bo'lib, ularning kontaktlari Q o'chirgichga tez ta'sir qiladi. 3KA, 4KA tok relyelari esa MTH uchun sozlangan, ularning kontaktlari Q o'chirgichga KT vaqt relyesi va KL oraliq relyesi orqali ta'sir qiladi. KH1, KH2 ko'rsatkich relyelari signal uchun ishlatiladi.

5.3. RELYE HIMOYA SXEMALARIDA TOK VA KUCHLANISH TRANSFORMATORLARI

O'lchov transformatorlari


1. Tok transformatorlari

Asosiy vazifasi:

a) o'lchov asboblari va apparatlarini katta kuchlanishli zanjirdan himoya qilish va shu bilan o'lchash jarayonini xavfsizlantirish;

b) himoya zanjirlarini tarmoq toki bilan ta'minlash.

Tok transformatorlari xuddi ampermetr singari birlamchi chulg'amlar orqali kontrol qilinayotgan obyekt bilan ketma-ket ulanadi. Ikkilamchi chulg'amlari bevosita ampermetrlarga va boshqa o'lchov asboblarning hamda himoya apparatlarining tok zanjirlariga ulanadi (5.7- rasm).



5.7- rasm. Tok transformatorining ulanish sxemasi.

Ideal transformator uchun $I_1 \cdot W_1 = I_2 \cdot W_2$ yoki $I_1 = W_2 \cdot I_2 / W_1 = n_n \cdot I_2$.

Ko‘rinib turibdiki, xavfsizlik qoidalariga rioya qilib, kichik ikkilamchi tok I_2 o‘lchanadi va keyin birlamchi katta tok I_1 ni aniqlash mumkin.

Aslida haqiqiy ikkilamchi tok I_2 hisob orqali aniqlangan tokdan farq qiladi, chunki magnitlovchi tok I_{mag} ikkinchi chulg‘amga transformatsiyalanmaydi (transformator ideal emas).

Magnitlovchi tok I_{mag} ni kamaytirish uchun transformator po‘lat o‘zagining magnit qarshiligini kamaytirish, transformatsiya koeffitsiyentini to‘g‘ri tanlash, ikkilamchi chulg‘amdagi yuklamani kamaytirish kerak (maksimum 2 Om).

O‘lchov asboblari va relye himoyasining aniq ishlashi tok transformatorining aniqlik darajasiga bog‘liq.

Tok transformatorlariga qo‘yiladigan asosiy talab — bu aniqlik darajasining yuqori bo‘lishidir. Aniqlik darajasi bo‘yicha tok transformatorlari quyidagi klasslarga bo‘linadi: 0,5; 1; 3.

Tok transformatorining nisbiy xatosi quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$\Delta I = (I_1 - I_2) \cdot 100\% / I_1.$$

Bunda: I_1 — ikkilamchi chulg‘amga keltirilgan birlamchi tok ($I_1 = I_2 / n_n$).

Bunda: I_2 — ikkilamchi tok.

1-klassga mos transformator uchun: $\Delta I = \pm 1\%$.

Qisqa tutashuv vaqtida nisbiy xato 10% gacha ruxsat etiladi.

Tok transformatorlarining ikkinchi chulg‘amini uzish mumkin emas, chunki ikkilamchi tok 0 ga teng bo‘lsa, birlamchi tok 0 dan farq qiladi. Shuning uchun birlamchi tokning hammasi magnitlovchi tokka aylanib qoladi, magnit oqimi ortadi, bu oqimga proporsional ravishda elektr yurituvchi kuch (E.Yu.K) E2 ortadi. Natijada tok transformatorining ikkilamchi chulg‘amida katta kuchlanish (1,5 kV gacha) paydo bo‘ladi. Ikkilamchi chulg‘amni uzgan personal shu kuchlanish ostida qolishi mumkin.


Katta oqim ta‘sirida po‘lat o‘zak qizib kengayib ketadi, bu esa izolyatsiyaning buzilishiga olib keladi, bunday holat, o‘z navbatida, yuqori kuchlanish tomonidan qisqa tutashuvga sabab bo‘ladi.

Relye himoyasi sezadigan qisqa tutashuv toklarini o'tkazish uchun tok transformatorlari shu toklarga kam vaqt — himoya ishlaguncha chidaydigan bo'lishi kerak.

Tok transformatorlarining ikkilamchi toklari standart bo'yicha 5 A va 1 A ga teng bo'ladi.


Relye himoyasi qurilmalarini ulash uchun tok transformatori va relyelarning bir necha tipdagi sxemalari mavjud (5.8-, 5.9-, 5.10-rasmlar):

1. To'liq «yulduz».
2. To'liq bo'lmagan «yulduz».
3. Tok transformatorlari «uchburchak» bo'lib, relyelar «yulduz» usulida ulanadi.
4. Bitta relye va ikkita tok transformatori yordamida toklarning ayirmasiga ulash.



5.8- rasm. TT bir fazaga ulangan.

5.9- rasm. TT uchuta fazaga to'liq yulduz usulida ulangan.



5.10- rasm. TT ikki fazaga to'liq bo'lmagan yulduz usulida ulangan.


Kuchlanish transformatorlari

Bu transformatorlar kichik quvvatli kuch transformatorlariga o'xshash.

$n_n = \frac{W_1}{W_2}$ — transformatsiya koeffitsiyenti.

W_1 — birinchi chulgʻamlar soni;

W_2 — ikkinchi chulgʻamlar soni.



5.11- rasm. Kuchlanish transformatorining ulanish sxemasi.

Oʻlchov transformatorlari uchun har doim $W_1 > W_2$ boʻladi.

Voltmetrning qarshiligi juda katta ($Z=1000\text{Om}$), yaʼni kuchlanish transformatori salt yurish holatiga yaqin rejimda ishlaydi (5.11- rasm).

Ideal transformator uchun:

$$N = \frac{U_2}{U_1}.$$

$$U_{2\text{stand}} = 100\text{V}.$$

Kuchlanish transformatorida chulgʻamlar «0» guruh boʻyicha yigʻiladi, yaʼni U_1 va U_2 vektorlar ustma-ust tushadi. Aslida W_1/W_2 — har doim oʻzgarmas kattalik emas. Bunga sabab, transformator chulgʻamlarida kuchlanish pasayishining bogʻligi. Shuning uchun transformator xatoligi bor.

$$U_2 = \frac{U_1}{n_n} - \Delta U.$$

Bunda: ΔU — chulgʻamlardagi kuchlanish pasayishi;

$$\Delta U = I_2(Z'_1 + Z_2) + I_{nom} \cdot Z'_1.$$

Z_1, Z_2 — birinchi va ikkinchi chulgʻamlar qarshiliklari;

I_2 — ikkilamchi tok;

I_{nom} — keltirilgan magnitlovchi tok.

Xatoni kamaytirish uchun ΔU ni kamaytirish kerak yoki chulgʻamlarning qarshiligini kamaytirish, I_2 ni kamaytirish va I_{nom} kamaytirish lozim.

Kuchlanish transformator xatosini quyidagi formula orqali ifoda qilinadi:

$$\Delta U\% = \frac{U_2' - \frac{U_1}{n_n}}{\frac{U_1}{n_n}} \cdot 100\%.$$

U_2' — haqiqiy ikkilamchi kuchlanish.

Aniqlik darajasi bo'yicha kuchlanish transformatorlari uchta klassga bo'linadi. Bular 0,5; 1; 3.

Yuklamaga bog'liq holda kuchlanish transformatorlar har xil klassda ishlashi mumkin.

Relye himoyasini ulash uchun kuchlanish transformatorlar bir necha tipli sxemalarda ulanadi:

1. Kuchlanish transformatorlarini «yulduz» usulida ulash.
2. Kuchlanish transformator chulg'amlarini ochiq «uchbur-chak» shaklida ulash.
3. Bir fazali chulg'amlarini «nol» ketma-ketlik filtrga aylantirish sxemasi.

5.4. O'TA KUCLANISHLAR VA O'TA KUCLANISHDAN HIMOYA

O'ta kuchlanish deb, kuchlanishning mo'ljallangan ishchi kuchlanishdan har qanday oshishiga va elektr qurilmalarining izolyatsiyasiga xavfli bo'lgan kuchlanishga aytiladi. Elektr qurilmasida o'ta kuchlanish ichki va atmosfera o'ta kuchlanishlariga bo'linadi.

Ichki o'ta kuchlanish. Ichki o'ta kuchlanishga rejimli, kommutatsiyali va yoqli o'ta kuchlanishlar kiradi.

Rejimli o'ta kuchlanishlar elektr qurilmalarining ish rejimi o'zgarishi bilan hosil bo'ladi. Masalan, qisqa tutashuv o'chirilganda, yuklamalarning tez o'zgarishida va boshqalar. Bunda qurilmada energiya zaxirasi ajralishi kuzatiladi. Bu energiya o'ta kuchlanish va ishchi kuchlanish amplituda kattaliklari munosabatlarini o'zida ifodalovchi o'ta kuchlanish karralisini aniqlaydi.

Kommutatsiyali o'ta kuchlanish induktiv va sig'im xarakterli o'zgaruvchan tok zanjirlarining uzilishi natijasida hosil bo'ladi. Masalan, transformatorlar, asinxron dvigatellar va XEUL ning salt ishlash toklarini o'chirishi va boshqalar.

Yoyli o'ta kuchlanish 1000 V dan yuqori qurilmalarda bir fazali yerga tutashuvda hosil bo'lishi mumkin.

Uning qiymati nominal kuchlanishdan 4–4,5 marta ortishi mumkin.

Atmosfera o'ta kuchlanishi. Sistemada sodir bo'ladigan atmosfera o'ta kuchlanishlarning asosiy manbai yashin urishidagi bulutlar yoki bulut bilan yer orasidagi bo'ladigan chaqmoqlardan razryadlanish hisoblanadi. Atmosfera o'ta kuchlanishi kommutatsiyali o'ta kuchlanishdan farqli ravishda elektr qurilmaning ishchi kuchlanishiga bog'liq emas. Atmosfera o'ta kuchlanishi induksiyalangan va yashinni bevosita urilishidan paydo bo'lgan o'ta kuchlanishlarga bo'linadi.

Induksiyalangan o'ta kuchlanish yashinni elektr qurilmalari yoki havo elektr uzatuv liniyalari yaqiniga urinishidan paydo bo'ladi.

Induksiyalangan o'ta kuchlanishda trosslar qo'llaniladigan elektr qurilmalarida o'ta kuchlanish amplitudasi 300–400 kV dan oshmaydi. Shuning uchun induksiyalangan o'ta kuchlanish 35 kV gacha bo'lgan elektr qurilmalari uchun xavfli, 110 kV va undan yuqori elektr qurilmalari uchun esa xavfli emas.

Yashinning bevosita urilishidan paydo bo'ladigan o'ta kuchlanish ancha xavfli hisoblanadi. O'lchashlar shuni ko'rsatadiki, yashin toki 10–250 kA oralig'ida o'zgaradi. Ko'p hollarda 25 kA ni tashkil etadi. Yashin tokining o'zgarish tezligi har xil. Odatda, hisob-kitoblar uchun 200 kA tok amplitudasi uchun 50 kA/mks qabul qilinadi.

Elektr qurilmalarni atmosfera o'ta kuchlanishidan himoyalash uchun yashin qaytargichlar, himoya troslari, razryadniklar va himoya oraliqlaridan foydalaniladi.

Yashin qaytargich himoyalayotgan obyekt ustida o'rnatilgan yashin qabul qiluvchilar yashin tokini yerga o'tkazuvchidan va zaminlovchilardan iborat bo'ladi. Yashin qaytargich turiga qarab sterjen ko'rinishida bo'ladi. Yashin qaytargich yaxshi zaminlangan bo'lishi kerak.

Trosli yashin qaytargich – bu bir necha nuqtalari yerga ulangan o'tkazgich bo'lib, havo elektr uzatuv yo'llarining tepasida o'rnatiladi.

Razryadlagich o'ta kuchlanish to'lqinini yerga razryadlaydi. Razryadlagichlar naysimon va ventilli razryadlagichlarga bo'linadi.


Naysimon razryadlagichlar havo elektr uzatuv yo‘llarida atmosfera o‘ta kuchlanishidan himoyalashda qo‘llaniladi. Ular ketma-ket ulangan tashqi S_2 va ichki S_1 uchqun oraliqlardan iborat bo‘ladi.

Tashqi uchqun oralig‘i razryadlagich nayni kuchlanish ostida bo‘lmasligini ta‘minlab beradi, aks holda toklar oqimiga olib keladi. Vaqt o‘tishi bilan esa nay yonib ketishi mumkin.

Agar razryadlagichdagi kuchlanish yashin ta‘sirida o‘rnatilgan qiymatidan oshsa, uchqun oraliqlari teshiladi va razryadlagich orqali yashin razryad toki zaminlagichga o‘tadi. Buning natijasida o‘ta kuchlanish kamayadi.

Bir vaqtning o‘zida razryadlagich orqali ishchi chastotali qisqa tutashuv toki oqib o‘tadi, natijada nayda elektr yoyi hosil bo‘ladi. Yoyning yuqori harorati ta‘sirida nay devorlari ko‘p miqdorda gaz ajratadi. Gaz 100–150 atm bosim ostida naydan itariladi va yoyni puflaydi. Yoy 1–2 havo oralig‘ida so‘nadi. Bu holat yana qaytarilishi mumkin.

5.12.- rasmda atmosfera o‘ta kuchlanishidan himoyalovchi ventilli razryadlagichlarning ulanishi keltirilgan.



5.12- rasm. Naysimon (a) va ventilli (b) razryadlagichlarning liniyaga ulanish sxemalari.

Ventilli razryadlagichlarga tashqi o‘ta kuchlanish ta‘sir etganda uning bitta uchqun oralig‘i teshilib, o‘ta kuchlanish to‘lqini kesiladi. Natijada ventilli razryadlagich orqali oqayotgan tok impulsidan qarshilikda kuchlanishning tushuvi hosil bo‘ladi.

Bu kuchlanishga *qolayotgan kuchlanish* deyiladi. Razryadlagich orqali o'qib o'tayotgan tok impulsining qiymatidan tashqari ventilli razryadlagich uchun asosiy bo'lgan ko'rsatkichlardan biri bu ichki qarshilikda kuchlanish tushuvining o'zgarmay qolishidir.

Bu holatning o'zgarmasligi uchun ventilli materiallardan yasalgan ikki noxiziqli qarshilik o'rnatiladi. Ishchi qarshilik asosan vilitdan yasalgan disklardan o'rnatilib, ular ventilli razryadlagich qo'llanilayotgan kuchlanishga qarab qo'yiladi.

O'ta kuchlanish to'lqinini chegaralash uchun podstansiya yaqinidagi yashin zarbasini bilish kerak. Buning uchun tros bilan himoyalangan havo elektr uzatuv yo'llarini podstansiyagacha bo'lgan 1–2 km masofani trosli himoya bilan naysimon razryadlagich komplekt qurilmasi qo'llanilishi kerak.

O'ZI-O'ZINI TEKSHIRISH SAVOLLARI

1. *Elektr sistemalarda qanday holatlar uchrashi mumkin?*
2. *Eng sodda himoya qurilmasi haqida ma'lumot bering.*
3. *Relyeli himoyaning vazifalari nimadan iborat?*
4. *Qanday elektr avtomatika qurilmalarini bilasiz?*
5. *Relyeli himoya qanday talablarga javob beradi?*
6. *Himoyaning sezgirlik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?*
7. *Himoyani ishonchli ishlashi nimaga bog'liq?*
8. *Qanday liniyalar uchun MTH asosiy himoya hisoblanadi?*
9. *Generatorlarda bo'ladigan nonormal holatlarni keltiring.*
10. *Transformatorlarda qanday shikastlanishlar uchraydi?*
11. *Gazli himoyaning ishlash prinsipini tushuntirib bering.*
12. *Sinxron va asinxron motorlar himoya turlarini solishtiring.*
13. *Tok transformatori va relyelarining qanday sxemalari mavjud?*
14. *Tok transformatorining asosiy vazifalarini keltiring.*
15. *Kuchlanish transformatori qanday holatga yaqin rejimda ishlaydi?*
16. *Tok va kuchlanish transformatorilarining aniqlik darajasi bo'yicha nechta klasslarga bo'linadi?*
17. *O'ta kuchlanishga ta'rif bering.*
18. *O'ta kuchlanish qanday turlarga bo'linadi?*
19. *Atmosfera o'ta kuchlanishi qanday hosil bo'ladi?*
20. *O'ta kuchlanishdan himoyalash uchun qanday qurilmalardan foydalaniladi?*
21. *Razryadlagichlar qanday turlarga bo'linadi?*
22. *Ventilli razryadlagichlar ulanish sxemasini tushuntiring.*

ILOVALAR

SI tizimida mexanik kattaliklarning birliklari

1- ilova

Kattalikning nomanishi	Birliklarning nomanishi	SI birligida yozilishi	Birliklarning belgilanishi	
			rus	xalqaro
Uzunlik	metr	m	m	m
Massa	kilogramm	kg	kg	kg
Vaqt	sekund	sek	sek	sek
Yuza	kv.metr	m ²	m ²	m ²
Hajm	kub.metr	m ³	m ³	m ³
Kuch, og'irlik	Nyuton	kgm/s ²	N	N
Zichlik	kilogramming metr kubga nisbati	kg/m ³	kg/m ³	kg/m ³
Kuch momenti	Nyuton-metr	kg·m ² /s ²	N·m	N·m
Ish, energiya	Joul	kg·m ² /s ²	Dj	J
Quvvat	Vatt	kg·m ² /s ² =dj/s	Vt	W
Burchak tezligi	radianning sekundga nisbati	s ⁻¹	rad/s	rad/s
Burchak tezlanishi	radianning sekund kvadratiga nisbati	s ⁻²	rad/s ²	rad/s ²
Davr	sekund	sek	sek	sek
Davriy jarayon chastotasi	Gers	s ⁻¹	Gs	Hz

SI tizimida elektromagnit kattaliklarning birliliklari

Kattalikning nomlanishi	Birliklarning nomlanishi	SI birligida yozilishi	Birliklarning belgilanishi	
			rus	xalqaro
Elektr tok kuchi	Amper	A	A	A
